

## M U N D A R I J A

<b>KIRISH</b>	<b>2-6</b>
<b>1-BOB. O'ZBEK YOZUVI: ALIFBO-IMLO ISLOHOTLARI VA O'ZGARISHLARI TARIXI.....</b>	<b>7-22</b>
1.1. XX asr 20-boshlarida o'zbek yozushi islohoti .....	7-13
1.2. O'zbek tili alifbo va imlosining lotin yozushi asosiga o'tishi .....	13-22
<b>2-BOB. YANGI O'ZBEK ALIFBOSI: MUAMMO VA YECHIMLAR</b>	<b>23-36</b>
2.1. Mustaqillik davrida yangi o'zbek alifbosining joriy etilishi .....	23-31
2.2. Yangi o'zbek alifbosidagi muammolar va uni isloh qilish jaryoni.....	31-36
<b>3-BOB. O'ZBEK TILI ASOSIY IMLO QOIDALARINING ISHLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>36-48</b>
3.1. O'zbek tilining yangi alifbodagi asosiy imlo qoidalarining qabul qilinishi.....	36-40
3.2. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini takomillashtirish muammolari.....	40-48
<b>XULOSA.....</b>	<b>49-50</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO 'YXATI.....</b>	<b>51-53</b>

## K I R I S H

**Mavzuning dolzarbligi.** Istiqlol tufayli milliy o‘zlik, milliy iftixor, milliy ma’naviyat, milliy an’analarimiz o‘zining asl ma’nosiga, qadriga ega bo‘ldi. Tilimizni har tomonlama taraqqiy ettirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbek tili, adabiy tilimiz o‘zbek xalqi madaniyati va ma’naviyatining ajralmas qismi, millatning mavjudligi va birligini, yuksalishini ta’minlovchi buyuk kuch sifatida uzil-kesil tan olindi. Sho‘rolarning umri tugab borayotgan davrida O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Mustaqillikka qo‘yilgan birinchi qadam bo‘lgan bo‘lsa, istiqlol yillarda bir paytlari kamsitilgan ona tilimiz har tomonlama taraqqiy ettirildi. Navbatdagi ish – milliy tilimizga mos alifbo va imlo qabul qilish kun tartibiga chiqdi. 1993-yilning 2-sentyabrida lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini joriy etish bo‘yicha qabul qilingan respublika qonuni 1995 yil 6-mayda bu qonunga kiritilgan o‘zgartishlar bilan rasman kuchga kirdi. Biz yangi alifboga o‘tdik.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidentining chuqur hayotiy haqiqat mujassam ushbu fikrlari bu boradagi hal qiluvchi va maqsad sari yetaklovchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda: “O‘tgan davr mobaynida ana shu qonun ijrosini ta’minalash bo‘yicha juda katta ishlar amalga oshirilganini ta’kidlash lozim. Avvalo, o‘zbek tilining lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’limning barcha bosqichlarida ana shu alifbo asosida bilim berilmoqda. Lotin yozuvida chop etilayotgan kitob va darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, gazeta-jurnallar, reklama va e’lonlar, davlat hujjatlari hozirgi vaqtida bu imlo madaniy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi”<sup>1</sup>.

Lekin alohida shuni ta’kidlash kerakki, respublikamizda o‘zbek tilini yangi yozuvga to‘liq o‘tkazishning muddatlari rasmiy hujjatlarda dastlab 2005-yil, keyin esa 2010-yil etib ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, shu paytgacha bunga erishib bo‘lmadi. Keyingi ikki yil ichida ijtimoiy tarmoqlarda, matbuotda ushbu masala qizg‘in

---

<sup>1</sup> Каримов И. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –Б. 87.

muhokama qilinmoqda. O‘zbekiston Prezidenti virtual qabulxonasiga kelib tushayotgan xatlarda bu o‘z aksini topmoqda. Muhokama ishtirokchilari yurtimiz aholisining turli qatlam vakillari bo‘lib ayniqsa, ziyolilar, o‘qituvchilar, talabalar ko‘proq faol bo‘lishmoqda. Ular tomonida bildirilayotgan fikr-mulohazalarga ko‘ra, o‘tgan davr ichida yozuv amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, yangi alifbo va imloda islohga muhtoj o‘rinlar mavjud. Ular bartaraf qilinishi lozimligi bildirilmoqda. Mazkur dolzarb masalalar O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risi”dagi Farmonida o‘z aksini topdi. Farmonda universitet jamoasi oldidagi vazifalar sifatida: “...o‘zbek tilining asl tabiatini va xususiyatlarini to‘la aks ettiradigan mukammal akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish, uning tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash” vazifasi alohida ta’kidlangan.

Davlatimiz rahbariyati ushbu masalaga alohida e’tibor qaratmoqda. Yaqinda 2018 yilning 15-may sanasi bilan “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini keng joriy etish va yana-da takomillashtirish bo‘yicha harakatlar rejasi” ishlab chiqildi va Respublika Bosh vaziri hamda Prezident maslahatchisi tomonidan imzolandi. Bularning barchasi tadqiqot ishimiz mavzusining juda dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** A. Hojiyev<sup>1</sup>, I.Qo‘chqortoyev<sup>2</sup>, Sh. Rahmatullayev<sup>3</sup>, A. Nurmonov<sup>4</sup>, N. Mahmudov<sup>5</sup>, Y.Abdullayev<sup>6</sup>,

---

<sup>1</sup> Ҳожиев А. Катта меҳнат маҳсулӣ // Маърифат, 1994-йил, 14-сентябрь, 43-сон, 3-бет.

<sup>2</sup> Кўчкортоев И. Ўзбек миллий алифбоси (давра сухбати) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993 йил 13 август, 2-бет; Ўзбек ёзуви муаммолари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1991 йил 22 март.

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси.-Т.: Университет, 2002.

<sup>4</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи -Т.: Ўзбекистон, 2002..

<sup>5</sup> Махмудов Н. Мустакиллик: ўзбек тили ва ёзуви // Халқ сўзи, 1992 йил 19 май .

<sup>6</sup> Абдуллаев Й. Ҳамроҳим.- Т.: Ўқитувчи, 1996.

H.Jamolxonov<sup>1</sup>, A. Rafiyev<sup>2</sup>, M.Qurbanova<sup>3</sup>, R.Jomonov<sup>4</sup>, T.Tog‘ayevlar<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy maqolalari, darslik va o‘quv qo‘llanmalari zamonaviy o‘zbek tilining alifbo va imlo muammolarini, ayni paytda o‘zbek yozuvi tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Qayd etilgan ishlarda mustaqillik yillarida o‘zbek tilini yangi alifbo va imloga o‘tkazish muammolarini, amaliy jihatlari o‘rganilar ekan, ayni paytda adabiy tilning yozuv shaklining me’yorlashuvi to‘g‘risida ham muayyan fikrlar, ilmiy qarashlar bayon qilingan.

Professor H. Jamolxonov va A. Umarov tomonidan nashrga tayyorlanib, o‘tgan yili chop etilgan “O‘zbek yozuvining XX asr tarixi” majmua kitobi o‘zbek yozuvi va o‘zbek grafik lingvistikasi tarixi bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar uchun ajoyib sovg‘a bo‘ldi. Kitob-majmuada XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrda arab grafikasidagi o‘zbek yozuvini isloh etish munosabati bilan matbuotda uyushtirilgan munozara materiallari, turli plenum, konferensiya va qurultoylarda o‘qilgan ma’ruzalar, alifbo va imlo bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning gazeta va jurnallarda chop etilgan matnlari hamda ularning kirill-o‘zbek alifbosiga o‘girilgan nusxalari jamlangan.

Filologiya fanlari nomzodi R.Jomonov monografiyasida o‘zbek kirill va lotin alifbolarida rus tili va Uevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarning berilishi maxsus o‘rganilgan bo‘lib, ularning imlosidagi murakkab holatlar tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zbek-lotin alifbosida o‘zlashtirilgan so‘zlarni aks ettirishdagi munozarali holatlar haqida fikr yuritiladi.

Biz ushbu tadqiqotimizda o‘zbek-lotin alifbosi va imlosiga o‘tilish tarixi, mustaqillik yillarida lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi va o‘zbek tilining takomillashtirilgan asosiy imlo qoidalarini joriy etilishi jarayonlarini o‘rganishga va bunga o‘z munosabatimizni bildirish va xulosa berishga harakat qildik.

---

<sup>1</sup> Жамолхонов X., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи ( I китоб), -Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллый кутубхонаси, 2017. -456-б.

<sup>2</sup> Рафиев А. Лотин ёзувига асосланган узбек алифбоси ва имлоси. – Т.: 2003.

<sup>3</sup> Курбанова М. Фитратнинг тилшунослик меъроси. Филол.фан. номз... дисс. -Т.: 1993.

<sup>4</sup> Jomonov R. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish va imlo muammolarini.-Т.: O‘zbekiston, 2013.

<sup>5</sup> Тофаев Т. Ашурали Зохирий ва унинг тилшунослик мероси. Филол.фан. номз... дисс. -Т., 2005.

**Tadqotning maqsadi va vazifalari.** Malakaviy ishning asosiy maqsadi XX asrda o‘zbek xalqi yozuv madaniyati tarixini o‘rganish, xususan, mustaqil O‘zbekistonda lotin yozuviga asoslangan lotin alifbosini joriy etilishi, bu sohada erishilgan yutuqlar va mavjud kamchiliklarni tadqiq etishdan iborat. Ish doirasivf quyidagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutildi:

- o‘tgan asrning 20-yillarida alifbo va imlo masalalarining hal qilinishini o‘rganish;
- mustaqillik yillarida yozuv o‘zgarishi zaruratiniz zamonning yirik olimlari, atoqli adiblari, ziyolilari fikriga asoslangan holda asoslab berish;
- lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi va imlosining ishlab chiqilishi va joriy etilishi jarayonlarini kuzatish va unga baho berish;
- joriy alifbo va imlo qoidalari to‘g‘risidagi ilmiy jamoatchilik fikrini, qarashlarini tadqiq etish, ularga munosabat bildirish;
- joriy yozuvimizdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yuzasidan taklif va xulosalar berish.

**BMIning ilmiy yangiligi.** Ishda XX asr boshlarida va mustaqillik yillaridagi yozuv islohoti va o‘zgarishlari, xususan, o‘zbek tilining lotin alifbosiga o‘tkazilishi jarayonlari, joriy alifbo va imlo muammolari tahliliy ravishda o‘rganildi. Shuningdek, yozuv islohoti va o‘zgarishlarga yondashuvlarga nisbatan ayrim yangi qarashlar bayon etildi.

**Tadqiqotning obekti va predmeti.** Tadqiqotning obyekti XX asr boshlarida va Mustaqillik davrida lotin asosli yangi o‘zbek alifbo va imlocini joriy etish jarayonlari bo‘lib, joriy alifbo va imlo qoidalari muammolarini tadqiq etish ishning predmeti hisoblanadi.

**BMIning nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur ish XX asrning 20-yillari, ayniqsa, mustaqillik davri o‘zbek yozuvi o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Undan «O‘zbek tilshunosligi tarixi», «Hozirgi zamon o‘zbek tili» kurslarini o‘qitishda, dars ishlanmalarini yaratishda material sifatida unumli foydalanish mumkin.

**BMIning manbai.** Tadqiqot ishi uchun mavzuga doir e'lon qilingan lingvistik maqolalar, ilmiy anjumanlardagi ma'ruzalar, darslik va qo'llanmalar, lug'at kitoblari manba bo'lib xizmat qildi.

**Ishning nazariy asosi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentlarining milliy istiqlol mafkurasi va adabiy-madaniy meros hamda tarixni o'rganishga oid asarlari, ta'lim-tarbiya sohasidagi ma'ruzalari ishning nazariy asosini tashkil etadi. Shuningdek, BMIda qo'yilgan masalalarni yoritishda hozirgi o'zbek tilshunosligi erishgan ilmiy-nazariy yutuqlarga, yangicha qarashlarga, ilmiy fikr va xulosalariga tayandik.

**Tadqiqotning metodologik asoslarini** tarixiylik, izchillik, xolisona baho berish tashkil qiladi. Tadqiqotda qiyoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**BMIning tuzilishi.** Ish kirish, uch bob, umumiylar xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiylar hajmi - 51 bet.

# **1-BOB. O'ZBEK YOZUVI: ALIFBO-IMLO ISLOHOTLARI VA O'ZGARISHLARI TARIXI**

## **1.1. XX asr 20-boshlarida o'zbek yozuvi islohoti**

Ma'lumki, tatar ma'rifatchilari chor Rossiyasiga qaram bo'lgan boshqa xalqlarga qaraganda yevropacha fikrning ilg'or yutuqlari va umumjahon demokratik g'oyalarini ertaroq egalladilar. Shu sababli ular Rossiya tarkibidagi qardosh turkiyzabon xalqlar madaniyatini rivojlantirishga katta ta'sir qilganlar. Bu ta'sir Ismoil Gaspirinskiy nomi bilan bog'liq. Zotan, u «sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasab, «usuli jadid» nomi bilan» tarixga kirgan «usuli savtiyani» boshlab berdi. Boshqacha aytganda, XX asr Sharqining mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligi - jadidchilikka asos soldi»<sup>1</sup>.

Chor Rossiyasi yuz berayotgan demokratik o'zgarishlar uning sarhadlaridagi boshqa xalqlar tillarida, alifbo va imlosida ham chuqur o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Yozuvni isloh qilish Qozon va Ufa tatarlari orasida qizg'in bahslarni keltirib chiqardi. Bu harakat Turkiston xalqlariga ham ta'sir qildi<sup>2</sup>.

Ma'lumki, arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi uzoq tarixiy davrni bosib o'tdi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi ham qariyb 1300 yil shu yozuvdan foydalanib keldi. O'tgan vaqt mobaynida ma'rifatparvarlar arab harflarini o'zbek tili qonuniyatlariga ma'lum darajada moslashtirishga harakat qildilar. Ammo 20-asrning boshlariga qadar arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvining imlo qoidalari yo'q edi, unga aloqador bo'lgan masalalar o'rganilmadi. Bu yozuvning imlo qoidalari yaratilmadi<sup>3</sup>. Aytish kerakki, tatar madaniyati tarixida alifbo-imloni tuzatish yo'lida kechgan harakatlar, turli yo'naliishlar, anjumanlarda qabul qilingan qarorlar o'zbek ma'rifatparvarlari faoliyatida chuqur iz qoldirdi.

O'tgan asr boshlarida jadidlar sa'y-harakati tufayli milliy o'lkalarda, jumladan, Turkistonda alifbo va imloni isloh qilish harakati boshlandi. Chunki Fitrat, Munavvar qori, Ashurali Zohiriy, Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon

---

<sup>1</sup> Қосимов Б. И smoilбей Гаспирали. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. -80 б.

<sup>2</sup> Тогаев Т. Ашурали Зохирий ва унинг тилшунослик мероси. Фил. фан. номз. дисс. автореф. -Т.: 2005, 9-б.

<sup>3</sup> Шукуров Ш. Эски ўзбек ёзуви имлоси // Ўзбек тили ва адабиёти ж. -1990. -№4. -Б. 36.

Rahimiyl singari jadid ziyolilari millat tarbiyasini, taraqqiyotini yosh avlodni tarbiyalashdan boshlash kerak, deb hisobladi. Shuning uchun maktab-maorif ta'lim-tarbiyasini bolalar o‘z ona tilida olishlari uchun qayg‘urdilar. O‘sha paytdagi joriy arab alifbosi va imlosi savod chiqarishda qiyinchilik tug‘dirayotgani uchun uni isloh qilishga kirishdilar. Ishning boshida Fitrat turdi. U Toshkentga kelgach, 1919 yilda siyosatga aralashmaslik sharti bilan “Chig‘atoj gurungi” nomli adabiy-badiiy, madaniy-ma'rifiy sohada faoliyat yuritishni maqsad qilgan tashkilot tuzdi.

Fitrat ta'biri bilan aytganda, XIX asrning so‘nglarida bizda ham «yangilashmak (tajaddud) fikri o‘yg‘ondi. Yangi maktablar ochmoq, yangi kitoblar yozmoq, gazitlar chiqarmoq istadik: ochdiq, yozdiq, biroq hanuz til, imlo masalalariga ochiq belgili bir yo‘l bera olmag‘on edik. Butun turk dunyosi uchun "bir yalpi til" qabul etmak xayollari bilan ovora bo‘ldiq. Tilimizni shunga to‘g‘ri yurg‘uzmoq uchun unumsiz tirishdik. Bu xayollarning ishg‘a oshmag‘onin bilgandan keyin o‘z tilimizni, o‘z imlomizni tushuna boshladiq. Bu yo‘lda birinchi odimni qo‘qonliq Ashurali Zohiriy otdi. "Imlo" bitikchasini yozib chiqardi. Undan so‘ngra Toshkantda "Chig‘atoj gurungi" ochildi. "Gurung" til, imlo masalalari bilan teranrak mashg‘ul bo‘ldi»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, sho‘rolar hokimiyati sharoitida faoliyat ko‘rsatgan Fitrat boshliq «Chig‘atoj gurungi» uyushmasi til-imlo masalalari bilan teran shug‘ullandi va ulkan ishlarni amalga oshirdi. Aniqlanishicha, «Chig‘atoj gurungi» 1918 yilning oxirlarida tashkil qilingan. Bu madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy tashkilot 1919 yilning boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiq qilingan. «Chig‘atoj gurungi» madaniy merosimizni to‘plash, o‘rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o‘zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug‘ullangan<sup>2</sup>. Jamiyat a'zolaridan Qayum Amazon, Elbek, Shokirjon Rahimiyl, Shorasul Zunnun, Oltoy va Botu imlo masalalari bilan maxsus shug‘ullanuvchi «Chig‘atoj gurungi»ning «Imlo to‘dasi»da ish olib borganlar. Yangi imlochilar o‘zлari isloh etgan imloni gazeta

<sup>1</sup> Тогаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси. Фил. фан. номз. дисс. автореф. -Т., 2005, 9-6.

<sup>2</sup> Бу ҳақда қаранг: Тогаев Т. «Чигатой гурунги» ҳақида айrim мулоҳазалар) // Хуррият газ. -2001. -№40.

sahifalarida e'lon qilib, targ'ib qila boshladilar. Ikki oylik o'qituvchilar tayyorlash kurslari ochib, yangi imloni o'rgata boshladilar. «Chig'atoy gurungi» «imlo to'dasi»ning o'qituvchilar uchun imlo qo'llanmasi - «Bitim yo'llari» nomli bitikchasi 1919 yilda Maorif komissarligi ruxsati bilan chop etildi. Ko'pchilik yosh ziyorilar, o'qituvchilar «Chig'atoy gurungi» imlosini yoqladilar va ularga ergashdilar.

“Chig'atoy gurungi” a'zolari ilk bor o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga kirishdilar. Ular til qoidalarini rus yoki arab tili grammatikalari asosida emas, balki shu tilning ichki xususiyatlari asosida yoritish kerakligini tushunib yettanligi sababli tarixiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, shevalar asosida material to'plab, ularni ilmiy jihatdan o'rgana boshladilar. 20-yillarga kelib matbuot sahifalarida Elbek, Qayyum Amazon, Shokirjon Rahimi, Shorasul Zunnunlarning o'zbek tili tovushlari, singarmonizm masalalaridan bahs yurituvchi maqolalari ko'rina boshladi<sup>1</sup>. Bular o'zbek tilshunosligidagi dastlabki jazzi ilmiy tadqiqotlar edi. 1919-yili Fitrat, Q.Ramazon va Sh.Rahimi o'zbek tili nazariy masalalariga bag'ishlangan "Bitim yo'llari" qo'llanmasini tuzdilar<sup>2</sup>. Bu asar keyingi til saboqliklarining yuzaga kelishiga ijobiy ta'sir qildi.

Shu tariqa Abdurauf Fitrat o'z davrining ilg'or ziyorilar, xususan, o'zi rahbarlik qilgan uyushma a'zolari milliy yozuvimizni yaratish borasida faol ishtirok etdilar. “Ularning bu sohadagi nazariy va amaliy faoliyatini ikki davriy bosqichga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Arab yozuvining islohi – milliylashtirish yo'lidagi faoliyati (1919-1923-y.).
2. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosini yaratish yo'lidagi faoliyati (1924-1929-y)<sup>3</sup>.

Fitratning arab alifbosini isloh qilish xususidagi nazariy qarashlari prof. M.Qurbanovning "Fitrat - tilshunos" nomli risolasida o'rganilgan. O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini mukammal bilgan Fitrat arab yozuvini isloh qilish

<sup>1</sup> Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли. Филол.фен. номз...дисс. автореф. –Т.: 2002. 11-б.

<sup>2</sup> Чигатой гурунги. Битим йўллари. –Т., 1919. 32-б.

<sup>3</sup> Сайдов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Филол.фен. номз...дисс.автореф. -Т., 2001 .

muhimligini birinchilardan bo‘lib tushunib yetdi. Negaki, amaldagi arab yozuvi o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini o‘zida to‘la ifodalay olmas edi va bu imloda, savod chiqarishda ko‘p qiyinchilik hamda murakkabliklar keltirib chiqarar edi. Bu xususda Fitrat shunday deydi: "Boshqalarning alifbolari, yozuvlari tartibli, intizomli, qulay. Bizniki tartibsiz, buzuq ham qiyin!"<sup>1</sup>.

Savod chiqarishni yengillashtirish uchun esa arab grafikasiga ayrim fonetik o‘zgartirishlar kiritish lozim edi. Shunday qilib, keng omma uchun o‘zlashtirish va foydalanish oson, qulay bo‘lgan yozuvni yaratish masalasi kun tartibiga qo‘yildi.

Sho‘rolar hukumati o‘zining dastlabki davridan boshlab savodsizlikni tugatish ishlariga katta e’tibor bilan qaradi. 1919-yil 26-dekabrda savodsizlikni tugatish to‘g‘risida Dekret chiqardi. Shuningdek, TASSRda alifbo va imlo masalalarini tezroq hal qilish vazifalari belgilandi. Shundan so‘ng, “rasmiy ravishda arab alifbosini isloq qilish boshlandi: bu masala yuzasidan maxsus anjumanlar 1918-1923-yillarda Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida o‘tkazilgan...”<sup>2</sup>.

Mazkur davrda o‘zbek ziyorilari orasida arab yozuvning islohi masalasiga qarashlar turlicha edi. M.Abdurashidxonov boshchiligidagi bir guruh ziyorilar arab yozuvi islohiga mutlaqo qarshi chiqdilar, alifboni hech bir o‘zgartirmay qo‘llashni davom ettirishni talab qilib chiqdilar. Ular "eski imlochilar" nomi bilan yuritildi. A.Zohiri yetakchiligidagi "o‘rta imlochilar" nomini olgan bir guruh ziyorilar esa arab alifbosiga jiddiy o‘zgartirish kiritish shart emas, faqat o‘zbek tili fonemalariga harflar olish bilan cheklanish kifoya qiladi, degan fikrni ilgari surdilar.

Fitrat boshchiligidagi "Chig‘atoy gurungi" a’zolari "Yangi imlochilar" guruhini tashkil etib, o‘zbek tilining fonetik xususiyatlaridan kelib chiqib, arab alifbosiga bir qator o‘zgartirishlar kiritishni va imlo qoidalarini shunga muvofiq o‘zgartirishni talab qilib chiqdilar. Ular masalaning mohiyatidan kelib chiqib, "Chig‘atoy gurungi" qoshida maxsus "Imlo to‘dasi"ni ham tashkil etdilar. Unda Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiyy, Shorasul Zunnun, Cho‘lpon, Botu va boshqa ziyorilar ish olib bordilar.

---

<sup>1</sup> Курбонова М. Фитрат-тилшунос.-Т., 1996. -Б.29.

<sup>2</sup> Абдуллаев Й. Ҳамроҳим.- Т.: Фан, 1996.-Б. 93.

Fitrat va uning maslakdoshlari arab yozuvining isloholini amalga oshirish yo‘lida qat’iy harakatlar qildilar. Soha buyicha o‘tkazilgan maxsus anjumanlarda o‘z fikr va qarashlarini ma’ruzalarida bayon qildilar. 1921 yil yanvar oyi boshida o‘tkazilgan Til va imlo qurultoyida Fitratning o‘zbek tili va imlosi xususidagi ma’ruzasi, ayniqsa, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi<sup>1</sup>.

Fitrat arab yozuvini isloh qilish sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

- arab yozuvi o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini to‘la ifodalay olmaydi. O‘zbek tilidagi unli tovushlarni yozuvda ifodalash uchun arab alifbosidagi belgi-shakllar yetishmaydi;

- arab tilida cho‘ziq va qisqaligi bilan farqlanuvchi atigi uchta fonema bor: **a**, **i**, **u**. Yozuvda cho‘ziq unlilar ifodalanadi, qisqa unlilar harakat bilan beriladi va yozuvda ular ko‘pincha ifodalanmaydi. Bu esa savod chiqarish ishlarida qiyinchilik tug‘diradi.

- ayrim unli va undoshlar shaklining bir xilligi, ularnig alohida belgi-shakllar asosida farqlanmasligi;

-ayrim undoshlarning ikki xil (t, h, s, sh ), uch xil (z) belgi-shakl bilan yozuvda ifodalanishi;

-arab tiliga xos bo‘lgan chuqur bo‘g‘iz portlovchisi va sayoz bo‘g‘iz portlovchisini ifodalovchi ayn va hamza harflarining mavjud bo‘lishi;

- arab alifbosidagi harflarning yozuvda to‘rt shaklda bo‘lishi.

Fitrat arab alifbosidagi bu kabi murakkabliklar keng xalq ommasini ommaviy ravishda savodli qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishini shunday bayon qiladi: "Maorifimizni eski imlo va yozuv bilan kengaytmak mumkin emas. Maorifni kengaytmak va savodsizlikni bitirmak uchun imlomizni isloh etmak lozimdir"<sup>2</sup>.

Fitrat arab yozuvini o‘zbek milliy tilining xususiyatlari va qonuniyatlarini hisobga olib soddalashtirish kerak, degan xulosaga keladi va masalaning yechimi sifatida o‘zining chuqur ilmiy asosga ega bo‘lgan taklif va mulohazalarini bayon o‘ynadi. Ular quyidagicha:

---

<sup>1</sup> Сайдов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Филол.фен. номз...дисс. автореф. -Т., 2001 . -Б.43.

<sup>2</sup> Курбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол.фен .номз... дисс. автореф.-Т., 1993.-Б.12.

1. Arab yozuvini o‘zbek tilining tovush tizimiga moslashtirish, uni jonli talaffuz va so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirish.
2. Arab alifbosida oltita unli (o, a, u, u, i, e) bo‘lishi va yozuvda ularni alohida shakl-belgilar bilan ifodalash.
3. Arab harflari ikki shaklda, ya’ni alohida yozilish shaklida hamda so‘z boshida yozilishi shaklida bo‘lishi.
4. Arab yozuvidagi ba’zi unli va undoshlar shakllari uchun alohida shakllar belgilash yoki hech bo‘lmaganda ularni farqlash uchun muayyan harakatlar orqali ifodalash.

Fitrat o‘zining ilgari surgan takliflarini har tomonlama izohlab, asoslab beradi.

Elbekning "Yozuv yo‘llari" darsligi ham "Bitim yo‘llari" zamirida yaratildi. Bu risolalar quyidagi jihatlari bidan bir-biridan farqlanadi:

- "Bitim yo‘llari" o‘qituvchilarga qo‘llanma sifatida yaratilgan bo‘lsa, Elbekning "Yozuv yo‘llari" saboqlik-darslik shaklida tuzilgan.

Fitrat hamda boshqa taraqqiyparvar tilshunos olimlarning harakat va faoliyatları natijasi o‘laroq 1922-yilda arab alifbosi rasman isloh qilindi. Shuni aytib o‘tish joizki, bu o‘zbek xalqining o‘n asrdan ortiqroq davr mobaynida foydalananib kelgan arab alifbosi bo‘yicha qilgan eng jiddiy islohoti edi. Bu islohot o‘zbek adabiy tilining rivojiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Isloh etilgan yozuvda harakatlar, *se, sod, zod, itqi, izg‘i, ayn, hamza* harflari chiqarib tashlandi, so‘zda unlilarning to‘liq yozilishi ta’minlandi. "Arab grafikasining birinchi isloh qilinishi, o‘zbek adabiy tilini jonli talaffuz va so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirish borasida birinchi qadam bo‘ldi"<sup>1</sup>.

Fitrat takliflari alifbo islohotini joriylantirish jarayonida, asosan, inobatga olindi. "Natijada arab yozushi ma’lum ma’noda milliylashtirildi. Olimning bu

---

<sup>1</sup> Боровков А.К. Узбекско-русский словарь.- М.:ГИС, 1959.- 839 б.

xizmatlari savod chiqarish jarayonida, maorif va maktab ishida ancha qulayliklar yaratdi"<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Muxtor sho‘rolar jumhuriyati davrida alifbo va imlo bir necha bor rasmiy ravishda islosh etilib, ularda asosan Fitrat va unga hamfikr ziyolilarning g‘oyalari o‘z ifodasini topdi. Ammo barcha ziyolilar buni birdek qabul qilmadi. O‘lkada chop etilayotgan turli gazeta va jurnallar o‘zlari ma’qul ko‘rgan imloda ish ko‘rdi.

Maorif tizimida ham shu hol davom etdi deyish mumkin. Bunga faqat O‘zbekiston Sho‘rolar Ijtimoiy Jumhuriyati tashkil topib, yozuv lotin alifbosiga ko‘chirilgachgina barham berildi. Shu sababli o‘zbek xalqining yangi alifboga – lotin yozuviga o‘tish hodisasi madaniyat va maorif sohalarini ancha taraqqiy ettirishga sabab bo‘lgan ijobiy hodisadir. Eng muhimmi, yozuv o‘zgarishi O‘zbekistondagi sohaga aloqador ziyoli, mutaxassis, olimlarning alifbo, imlo, adabiy til masalalarida yakdil bo‘lishlarini ta‘minladi. Lotin alifbosiga ko‘chish sabablari va uning adabiy til ravnaqidagi ijobiy tomonlari, ayrim mutaxassislarning bu jarayonga munosabati to‘g‘risida keyingi faslda fikr yuritamiz.

## **1.2. O‘zbek tili alifbo va imlosining lotin yozuvi asosiga o‘tishi**

Arab alifbosi islohoti masalasi rasmiy ravishda hal qilinayotgan paytdayoq o‘zbek ziyolilari tomonidan 20-yillarning boshlarida lotin harflariga asoslangan o‘zbek alifbosini yaratish g‘oyalari o‘rtaga tashlana boshlandi. Fitratning aytishicha, «Chig‘atoy gurungi» hatto o‘sha paytdayoq «...o‘lkada lotin harflarini qabul etmakni yoqlovchilar tayyorladi». Buning ilk ko‘rinishi sifatida, 1921 yilgi Til-imlo qurultoyi va 1922 yilda bo‘lgan O‘zbek maorif va madaniyat xodimlarining o‘lka qurultoyida Botu (Mahmud Xodiev) va Said Alixo‘jalar arab alifbosini tashlab, lotin alifbosiga o‘tishni taklif qilgan edilar<sup>2</sup>.

Ayrim tadqiqotlarda 20-yillar oxiridagi yozuv o‘zgarishi to‘g‘risida gap ketganda, arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tilishiga juda salbiy munosabat bildirilgan. Ularda bu tadbir rasmiy tashkilotlarning qat’iy ko‘rsatmasi, tazyiqi

---

<sup>1</sup> Курбонова М. Фитрат - тилшунос.-Т., 1996.-20 б.

<sup>2</sup> Тогаев. Т. Олмоснинг бир кирраси. // Жамият ва бошқарув жур., 2000 йил 2-сон.

ostida kechganligi aytiladi. Bu xalqning boy tarixiy o‘tmishidan, madaniyatidan, ilmiy-adabiy merosidan ajrab qolishiga olib kelgani ko‘rsatiladi. Arab yozuvidan lotinga o‘tishning salbiy oqibatini anglagan ko‘pgina ma'rifatparvarlar, xususan, Ashurali Zohiriy, G‘ozi Olim Yunusov, Qayum Ramazon singari tilshunos olimlar, boshqa atoqli ziyorilar O‘zbekistonidagi bu jarayonga qarshi turganliklari, biroq sho‘rolar xukumati ustun chiqqanini yozadilar. Bu fikrlarning ayrimlari to‘g‘ri bo‘lgani holda, ko‘pchiligi tarixiy dalillarga ziddir.

Ma'lumki, xalqimiz 1929 yilgacha arab alifbosidan foydalanib keldi. Eski arab alifbosidagi yozuvda yagona imlo tizimi bo‘lman. Unlilar uchun olingan harflar miqdori alifboda yetarli emas edi. Shuningdek, eski alifboda arab tiliga xos bo‘lgan harflarning borligi savod chiqarishga qiyinchilik tug‘dirar edi. Shu sababli arab alfavitini isloh qilishga urunish bo‘lgan. Fitrat boshliq «Chig‘atoy gurungi» a’zolari tashabbusi va ularni qo‘llagan Maorif komissarligi taklifi bilan Toshkentda 1921 yilning boshida Til va imlo quriltoy bo‘ldi. Qurultoyda eski alifbo-imlo savod chiqarishga, maktab-maorif rivojiga, madaniy taraqqiyotga to‘sinqinlik qilayotgani sababli rasmiy isloh etilib, «Chig‘atoy gurungi»ning imlo asoslari qabul qilindi.

Qurultoyda imlo masalasida ziyorilar o‘rtasida fikriy ajralish bo‘ldi. Bu borada ziddiyat yangi imlo masalasi o‘rtaga chiqqan chog‘dan (1919 yildan) kelmoqda edi. Munavvar qori va Ashurali Zohiriy o‘z tarafдорлари bilan yangi imloga qarshi bo‘ldilar. Turkiy xalqlar uchun o‘rta bir imlo - yagona yozuv fikrini yoqlagan bu zotlarning pozitsiyasi Turkistonda kechayotgan madaniy, siyosiy voqyealar jarayoni bilan boqliq edi. Ayni chog‘da yangi imlochilar ilgari surgan alifbo-imlo tamoyillarida ayrim kamchiliklar mavjud ediki, buni vaqtida Ashurali Zohiriy, hatto bir muddat «Chig‘atoy gurungi» a’zolaridan bo‘lgan Shorasul Zunnun matbuotda ko‘rsatib bergandi<sup>1</sup>.

«Chig‘atoy gurungi»chilar adabiy til va yozuv masalasida asosan o‘zbek millati manfaati nuqtai nazaridan ish ko‘rishdi. Munavvar qori, Musa Begiev,

---

<sup>1</sup> Иштирокион, 1919 й., 19 июнь; 1920 й., 26 сентябрь.

Ashurali Zohiriy va ularga maslakdosh millatparvarlar esa Turkiston ozodligi uchun kurash ketayotgan bir sharoitda milliy-madaniy jahbada yolg‘iz o‘zbek millati nomi bilan yo‘l tutilsa, kurashning dushman foydasiga hal bo‘lishi xavfini ta’kidlar edilar. Shuning uchun ham ular O‘rta Osiyoda turkiy xalqlarning hammasi uchun umumiyligini bo‘lgan bir til, adabiyot va yagona yozuv yaratishni o‘z davrining amaliy vazifasi deb hisoblaganlar<sup>1</sup>.

1922-yil fevral oyida Toshkentda chaqirilgan o‘zbek madaniyati va xodimlarining o‘lka qurultoyi ham til-imlo masalasi tufayli ikki taraf guruh o‘rtasidagi bahs va janjallar bilan o‘tdi<sup>2</sup>. Milliy taraqqiyot omili bo‘lgan maktab-maorif, matbuot-nashr ishlarida turlilik, parokandalik yuzaga keldi. Bu holning o‘lka taqdiridagi salbiy oqibatini anglagan ziyorolar o‘rtadagi nizoga barham berishga va birlashishga qaror qildilar. Toshkentdagi o‘zbek maorif va madaniyat xodimlari butun o‘lkadagi maorifparvar kuchlarga «erlik xalq maorifida muttahid furunt (birlashgan front)» shiori bilan murojaat etdilar (Munavvar qori, Mannon Ramz, Zahiriddin A’lam, Elbek, Shahid Ehson Ahmadiev, Salimxon Tillaxonov, Cho‘lpon, Xolmuhammad Oxundiyy, Majid Qodir va boshqalar). Maxsus hay'at belgilanib, «Muttahid frunt»ning imlo to‘g‘risidagi asoslari, ya’ni o‘rtalikda qabul qilingan alifbo-imlo matbuotda e’lon qilindi (1923 y.)<sup>3</sup>. O‘zbek maorifini ko‘tarish, ilmiy xizmatni yo‘lga qo‘yish, o‘rtadagi ziddiyatni yo‘qotish uchun «Nashri maorif» jamiyatini tuzdilar. Biroq oradan ko‘p o‘tmay bu birlashuv barham topdi, ziyorolar o‘rtasidagi yozuv masalasidagi kelishmovchilik davom etdi. 1923-yilning oktyabrida Buxoroda O‘rta Osiyo o‘zbeklarining Til va imlo o‘lka anjumani chaqirildi. Unda yana alifboni isloh qilish, imlo asoslarini ishlab chiqish masalalari ko‘rildi. Konferensiya qarori Turkiston Jumhuriyati Maorif komissarligining 1923-yil 18-oktyabrdagi 48-sonli buyrug‘i bilan kuchga kirdi<sup>4</sup>. Ta’kidlash kerakki, bu yig‘inda kelgusida alifboni lotinlashtirish fikri maqullandi, bu ishning amaliy

<sup>1</sup> Мунаввар қори. Хотираларим. Жамият ва бошқарув ж., 1998 й., 2-сон.

<sup>2</sup> Ўзбек ўғли. Ўзбек маданият ва маориф ходимларининг ўлка қурултойи. /Кизил байрок, 1922 йил, 26 апрель.

<sup>3</sup> Ерлик халқ маорифида муттаҳид фрунти. /Туркистон газ., 1923 й., 1-январь.

<sup>4</sup> Ўқтам (Қаюм Рамазон). Ўрта Осиё ўзбекларининг тил ва имло конференцияси./Туркистон, 1923 йил, 31 октябрь

tomonlari muhokama qilindi. Turkiy dunyoda qo‘zg‘alayotgan lotinga o‘tish harakati, shuningdek, ziyolilar o‘rtasidagi arabcha alifbo-imlo masalasida burungi munosabatlar sabab Buxoro anjumanidan so‘ng ham baribir yozuvda turlilik davom etdi.

Keyinroq sho‘rolar tuzumi mustahkam oyoqqa turib, o‘zbek adabiyoti va adabiy tilini, milliy madaniyatini proletarlashtirish, sovetcha «baynalminallashtirish» jarayoni boshlangach, jadid ziyolilarining har ikki turkumiga «burjua millatchilari» tamg‘asi bosildi. Hatto L.K.Borovkovdek yirik tilshunos olim ham hukumron mafkura nog‘arasiga o‘ynashdan chetda tura olmay shunday yozgan edi: «Umum turk» tili va «chig‘atoy» tilini o‘zbek xalqiga tig‘ishtirish Turkistonda milliy burjuazianing madaniy hukmronligini ta'minlash, burjua madaniyatini sotsialistik madaniyatga qarshi qo‘yish uchun zarur edi»<sup>1</sup>.

Xullas, arab alifbosi 1921-yildan boshlab uch bor isloh qilinishiga qaramay, uni tuzatib, bu sohada yagona fikrga kelib bo‘lmadi. Shu sababli, turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar ham o‘z tillari uchun ancha sodda va ancha qulay bo‘lgan lotin alifbosiga o‘tdilar.

1922-yildan Ozarbayjonda lotin alifbosini joriy etishga doir tadbirlar amalga oshirila boshladi. Ko‘p o‘tmay bu tashabbus turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar o‘rtasida keng yoyildi. 1926-yilning fevral oyi oxiri va mart oyining boshlarida Bokuda Butinitifoq turkologiya quriltoy bo‘lib o‘tdi. Turkiyot qurultoyida Rahim In’omov, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiyy, Elbek, B.Rahmoniy, Abdujabborovlar O‘zbekistondan vakil bo‘lib qatnashdilar. Fitrat bu anjumanga yirik sharqshunos olim sifatida «alohida chaqiruv bilan» taklif etildi<sup>2</sup>. Qurultoyda turkiy xalqlarning lotin alifbosiga o‘tishlari haqida qaror qilindi. 1926-yilda O‘zSSR MIKning iyun oyidagi IV sessiyasida o‘zbek imlosini lotinlashtirish masalasi ko‘rib chiqildi va Markaziy Ijroqo‘m huzurida "Yangi o‘zbek alifbo

---

<sup>1</sup> Л.К.Боровков. Узбекский литературный язык в период 1905-1917. Т.-1941.

<sup>2</sup> Ашурали Зохирий. Туркология курултойи атрофида. Фаргона газ., 1926 й., 374-сон.

qo‘mitasi”ni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi<sup>1</sup>. Qo‘mitaga a’zo qilib 43 kishi belgilandi.

1929-yilning may oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan Til va imlo anjumanida respublikada lotin harfli o‘zbek alifbosiga o‘tish haqida qaror qabul qilindi. Fitrat, Ashurali Zohiriy, Cho‘lpon, G‘ozi Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Elbek, Abdulla Alaviy, Shokirjon Rahimiyy singari mashhur olim va yozuvchilar, ko‘zga ko‘ringan madaniyat xodimlari, milliy ziyolilar lotin yozuvi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi va imlosini ishlab chiqish, uni hayotga joriy etish ishiga katta hissa qo‘shdilar.

Turkiy xalqlarning arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tishlari ularni keyinchalik rus grafikasiga o‘tkazish uchun bir ko‘prik vazifasini o‘tashi kerak edi. Shunday bo‘lib chiqdi ham. Ko‘p o‘tmay bu jarayon tamoman teskari harakatga aylandi. Sho‘rolar hukumati butkul mustahkamlanib, partiya yakkahokimligi o‘rnatilgach, qizillar sultanatida endi yozuvni rus-kirill alifbosiga o‘tkazishga qaaror qilindi.

Milliy ziyolilarimiz lotin alifbosida ko‘chish arafasida va unda ish ko‘rilgan o‘n-o‘n bir yil ichida adabiy tilni yaratish, uni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar.

1926-yilning 26-fevral – 6-mart kunlari Bokuda turkologlarning birinchi Butunittoq qurultoyi bo‘lib o‘tadi, unda arab va rus grafikalari asosida ish ko‘rayotgan turkiy xalqlarning yozuvarini lotinlashtirilgan alifbolarga ko‘chirish masalasi ko‘rildi. Qurultoyda turkiy xalqlarning yozuvarini lotinlashtirilgan alifbolarga ko‘chirish taklifi ma‘qullanadi, bu taklifning har bir Respublikada maxsus ko‘rib chiqilishi tavsiya etiladi. Ana shu tavsiyadan so‘ng O‘zbekistonda lotin grafikasiga ko‘chish harakati ancha tezlashadi. Chunonchi, "Maorif va o‘qitg‘uvchi" jurnalida chiqqan bir maqolada bu haqda shunday deyiladi: "Nima uchun arabdan lotinga o‘tish kerak. Shu so‘roqqa qisqa qilib shunday javob beramiz:

---

<sup>1</sup> Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. -М-Л: 1960. С. 57.

1. Arab alifbosi turk tilidagi tovushlarning shaklini tamomila bera olmaydir.
2. Arab alifbosi texnika tomonidan lotindan quyida turadir. Arabda nuqtalar, alomatlar, bosh, o‘rta va so‘nggi harflar bordir. Lotin esa bulardan uzoqdir.
3. Arab alifbosi o‘qitish, o‘rganish ishida lotindan ortda turg‘oni, texnika tomonining buzuqligi ustiga stenografiya, telegrafiya ishida ham to‘sinqinlik qiladir"<sup>1</sup>.

**1926-yilning 192-mayida** Samarqandda o‘zbek ziyolilarining alifbo muammolariga bag‘ishlangan ilmiy kengashi bo‘lib o‘tadi. Mana shu anjumanda ishtirok etgan Abdurauf Fitrat alifbo o‘zgarishi bilan bog‘liq shunday fikrlarni bildirgan edi:

“Bokuda bo‘lib o‘tgan turk tilshunoslari qurultoyi ilmiy tekshirishlar natijasida turk ellari uchun lotin alifbosining arab alifbosidan yaxshiroq yaratilganligi to‘g‘risida ilmiy qarorini bergen edi. Bu muhim qaror turk millatlariga, turk hukumatlariga yashin kabi ta’sir qildi. Ko‘pdan beri lotin harflari asosida yangi turk harflarini tuzib, uning nashriga bor kuchi bilan tirishmoqda bo‘lgan Ozarbojon jumhuriyatida va boshqa totor, boshqird, qirg‘iz, turkman, o‘zbek jumhuriyatlarining bu muhim masala to‘g‘risida kengashlari, qarorlari bo‘lib, tatbiq uchun choralar ko‘rmoqdalar. Boku qurultoyining bu qarori yolg‘uz sho‘ro jumhuriyalari ittifoqda bo‘lg‘on turk-totor jumhuriyatları emas, balki ittifoqdan tashqaridag‘i Turkiya jumhuriyatiga ham ta’sir qildi. Arab harflarining turk tillariga yaramaganligi to‘g‘risida Turkiyada ko‘pdan beri masala qo‘zg‘otilg‘on bo‘lsa ham, uni tashlab lotin harflarmini qabul qilish uchun so‘ng qat‘iy , rasmiy qaror, onda ham Boku qurultoyidan keyin bo‘ldi.

Bizning o‘zbek sho‘rolar jumhuriyati bu masalaga juda katta ahamiyat berdi. O‘zbek vakillari Boku qurultoyidan qaytgandan boshlab lotin harflarini hayotg‘a oshirish yo‘lida tirishmoqdalar. 19-mayda (1926-yil) Samarqandda o‘zbek ilm xodimlarining kengashlari ochilib uch kun davom etdi.

<sup>1</sup> Инъомов Р.Лотин алифбоси учун кураш// "Маориф ва ўқитғувчи" журнали, 1926, 3-сон. 5-б.

Kengash majlisi ko‘p jiddiy mubohasalar bilan o‘zbekcha lotin harflari loyihasini muzokara qilib, o‘zbekcha uchun lotin harflarining shakllarini, sonini belgilab oldi”<sup>1</sup>.

Kengash qaroriga binoan yangi alifbo loyihasi tuziladi, u O‘zbekiston Maorif Xalq Komissarligi tomonidan tasdiqlanadi<sup>2</sup>.

**1926-yilning 10-iyunida** O‘zbekiston Ijtimoiy Sho‘rolar Jumhuriyatি Kengashining 1-chaqiriq 4-sessiyasi bo‘lib o‘tadi. Unda yangi alifboga o‘tishni rejali ravishda amalga oshirish maqsadida Ijroiya Qo‘mita huzurida O‘zbekiston Yangi alifbe Markaziy qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Shu qarorga ko‘ra yangi alifbe Markaziy qo‘mitasining 44 kishidan iborat tarkibi va uning raisi (Y.Oxunboboev) belgilanadi.

**1928-yilning 11-avgustida** O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi shu yilning 7-martida bo‘lib o‘tgan sessiya topshirig‘ini amalga oshirish maqsadida 123-sonli maxsus qaror qabul qiladi. Qarorga binoan yangi (lotinlashtirilgan) o‘zbek alifbosi *Davlat alifbosi* deb e’lon qilinadi hamda bu alifboga asta-sekin (bosqichma-bosqich) o‘tish tartibining yangi alifbo Markaziy Qo‘mitasi rejasiga muvofiq amalga oshirilishi lozimligi ko‘rsatiladi. Bu qarorda yangi alifboga to‘la o‘tishni 193- yilning oxirigacha yakunlash nazarda tutiladi.<sup>3</sup>

**1928-yilning 1-dekabrida** O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi o‘zining 209-sonli qarori bilan shu yilning 11-avgustida qabul qilingan 123-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritadi, bu yangi (209-sonli) qarorda yangi (lotinlashtirilgan) alifboga o‘tish muddatini 2-yilga qisqartirish (uni 1930-yilning 1-yanvarigacha tugallash) nazarda tutiladi.<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> Абдуллаев Й. Ҳамроҳим.- Т.: Ўқитувчи, 1996.

<sup>2</sup> Қаранг: “Маориф ва ўқитувчи” журнали, 1926, 5-сон, 50-53-б.

<sup>3</sup> Об объявлении в узбекской письменности ново-узбекского (на латинской основе) алфавита – государственным и о порядке перехода на ново-узбекский алфавит всех учреждений, школ и издательств // Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №2, ед. хр. 14.с.9-10.

<sup>4</sup> О дополнении постановления Центрального Исполнительного Комитета от 11 августа 1928 года №123 “Об объявлении в узбекской письменности ново-узбекского (на латинской основе) алфавита – государственным и о порядке перехода на ново-узбекский алфавит всех учреждений, школ и издательств” статьей 12-ой // Центральный Архив АН Республики Узбекистан, фонд №4, опись №2, ед. хр. 14, с.11.

**1929-yilning 15–23-mayida** Samarqandda Respublika til-imlo konferensiyasi bo‘lib o‘tadi. Unda asosan 3 ta masala – adabiy til, istiloh (termin) va imlo masalalari ko‘riladi. Bu konferensiyada adabiy til me'yorlarini belgilashda singarmonizmli qishloq shevalarining xususiyatlarini hisobga olish lozimligi haqida takliflar bo‘ladi, shu asosda alifboda ham unlilarni ifodalovchi 9 harfning bo‘lishi ma’qullanadi; alifboga bosh harflar qo‘shiladi va harflar tartibi belgilanadi.<sup>1</sup>

*1929-yilning 15-23-may kunlari Samarannda bo‘lib o‘tgan Respublika til-imlo konferensiyasida lotin yozuviga asoslangan 33 harfdan iborat yangi o‘zbek alifbosi qabul qilinadi.*

	<b><i>Harf</i></b>	<b><i>Harf nomi</i></b>	<b><i>Harf tovushi</i></b>
1	A a	a	o, a (til orqa)
2	B b	be	b
3	C c	ce	ch
4	Ç ç	çe	j (qorishiq)
5	D d	de	d
6	E e	e	e
7	Ə ə	ə	ä (til oldi)
8	F f	ef	f
9	G g	ge	g
10		e	g‘
11	H h	he	h
12	I i	i	i (til oldi)
13	J j	je	y
14	K k	ka	k
15	L l	el	l
16	M m	em	m
17	N n	en	n
18	Ñ ñ	iñ	ng
19	O o	o	o‘ (til orqa)
20			ö (til oldi)
21	P p	pi	P
22	Q q	qi	q
23	R r	er	r
24	S s	es	s
25	Ş ş	şa	sh

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Тил ва имло конференциясининг қарорлари. – Тошкент: Ўздавнашр, 1930.

26	T t	te	t
27	U u	u	u (til orqa)
28	V v	ve	v
29	X x	xe	x
30	U u	y	ü (til oldi)
31	Z z	ze	z
32			j (sirg‘aluvchi)
33			i (til orqa)

**1929-yilning 10-avgustida** O‘zbekiston Xalq Maorifi Komissarligi kollegiyasining yig‘ilishi bo‘lib, unda may oyida bo‘lib o‘tgan til-imlo konferensiyasi tavsiya qilgan yangi imlo qoidalari tasdiqlanadi.<sup>1</sup> "Qoidalalar" 29 moddadan iborat bo‘lib, ularda singarmonizmli sheva xususiyatlarini yozuvda ifodalashga ko‘proq o‘rin beriladi. Yozuvning ayni shu jihatni jamoatchilikda e’tiroz tug‘diradi, bu e’tiroz 1933-yida o‘zbek orfografiyasini qoidalaring yangi loyihasi yaratilishiga olib keladi.<sup>2</sup>

**1934-yilning yanvar oyida** Toshkentda o‘zbek orfografiyasining yangi loyihasi muhokamalarini yakunlash maqsadida birinchi Respublika Qurultoyi o‘tkaziladi, unda alifboden 3 ta harf (o,u,) chiqariladi, natijada "o" – "o", "u"- "u", "i" – "" juftliklari o‘rnida "o", "u" va "i" harflarining o‘zini qo‘llash qoidalashtiriladi, biroq bu bilan alifbo va imlodagi qiyinchiliklarga to‘la barham berilmaydi: "a" bilan "e" harflarining qo‘llanishidagi noizchilliklar, "-ga" va "- a", "-gan" va "- an", "-gac" va " - ac", "-lik" va "-liq" ... kabi ko‘p variantlilikning yozuvda saqlanganligi jonli til bilan imlo o‘rtasida jiddiy tavofutlarni yuzaga keltiradi, izchil va barqaror savodxonlikni ta’minlash ishiga halaqt beradi.

### I bob bo‘yicha xulosalar:

Shunday qilib, hozirgi o‘zbek adabiy tili taraqqiyotining ilk boskichiga Samarkand Konferensiyasi yakun yasaydi. Bu bosqichning asosiy jihatlarini kuyidagicha tavsiflash mumkin:

<sup>2</sup> Ибрагимов С. Орфография узбекского языка// Орфография тюркских литературных языков.- Москва: "Наука", 1973, с.222

<sup>3</sup> Ўзбек адабий тилининг бирлашган янги имло лойихаси. – Тошкент, 1933 й.

1. 1900-1917-yillardagi ma'rifiy ishlar arab grafikasidagi o'zbek yozuvini isloh qilish kerakligi haqidagi g'oyani shakllantirgan.

2. Fitrat boshliq "Chig'atoy gurungi" a'zolarining harakat va faoliyatları bilan 1919-yıldan alifbo-imloni isloh qilish harakati boshlandi. 1921-yilda arab alifbosi rasman isloh qilindi. Bu islohot o'z davri o'qish-o'qitish ishiga, savodxonlikni oshirishga katta yordam berdi.

3. Arab alifbosi 1921–1923-yil ichida uch bor isloh qilinishiga qaramay, uni tuzatib, bu sohada yagona fikrga kelib bo'lmadi. Shu sababli, turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar ham o'z tillari uchun ancha sodda va ancha qulay bo'lgan lotin alifbosiga o'tdilar.

4. 1923–1929-yillar orasida arab yozuvini saqlab qolish tarafdarları bilan lotin yozuviga ko'chish tarafdarları o'rtasida qizgin bahs-tortishuvlar bo'lib o'tadi, bu munozaralarda, dastlab (1923–1926-yillarda) «arabchalar» ustunlikka erishadi, ammo keyinroq (1926–1927-yillardan boshlab) ustunlik «lotinchilar» tarafiga o'tadi. 1928-yilda lotin grafikasi asosida tuzilgan yangi o'zbek alifbosi davlat alifbosi deb e'lon qilinadi va Yangi o'zbek alifbosi komiteta tomonidan tayyorlangan reja asosida uni amalga kiritish ishlari jadallashtiriladi.

5. 1929-yilda Samarqandda o'tkazilgan Respublika til-imlo konferensiyasi singarmonizmli qishloq shevalari vokalizmiga tayanib tuzilgan alifboni ma'qullaydi, unga bosh harflarni qo'shish bilan cheklanadi. Bu konferensiyada «O'zbek adabiy tili to'g'risidagi qaror», «Imlo qarori» va «Termin to'g'risidagi qaror»lar xam qabul qilinadi, shu tariqa Respublikada adabiy til va imlo muammolari bir daraja hal etiladi.

6. Fitrat, Ashurali Zohiri, Cho'lpion, G'ozi Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Elbek, Abdulla Alaviy, Shokirjon Rahimiy, Botu singari mashhur olim va yozuvchilar, ko'zga ko'ringan madaniyat xodimlari, milliy ziyolilar dastlab arab alifbosini isloh qilish, keyin esa lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi va imlosini ishlab chiqish, uni hayotga joriy etish ishiga katta hissa qo'shdilar. Lotin yozuviga o'tilishi munosabati bilan o'zbek tilining xususiyatlari asosida alifbo va imlo me'yorlarining belgilanishi o'sha davr adabiy tilning shakllanishi va rivojida muhim bosqich bo'ldi.

## **2-BOB. YANGI O'ZBEK ALIFBOSI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

### **2.1. Mustaqillik davrida yangi o'zbek alifbosining joriy etilishi**

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamiz mustaqilligi yo'lidagi dastlabki qadamlardan edi. Negaki, mustaqillik milliy tildan ayri bo'lgan emas. O'z davlat tilining mavjudligi mustaqil yurtning muhim belgilaridan biridir.

O'zbekistonning mustaqil davlatga aylanishi tufayli yuzaga kelgan sharoitlar, istiqlol mafkurasi talablari va imkoniyatlari o'zbek tilining rivojiga yo'l ochgan bo'lsa, shu bilan birga o'zbek tilining talab darajasidagi alifbosini yaratishni eng muhim va tezda amalga oshirilishi lozim bo'lgan masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Mustaqillikning daslabki yillaridan mamlakatimizning yirik, taniqli ilm-fan, jamoat arboblari, mutaxassis olimlari o'zbek tili uchun yangi alifboga o'tish zarurligini, bu biz uchun lotin yozuviga asoslangan alifbo bo'lishi lozimligi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida, matbuotda turkum chiqishlar qila boshladilar. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutining katta ilmiy xodimi Suyun Qorayev "Yozuvimiz takomilga muhtoj" maqolasida joriy kirill-o'zbek yozuvidagi muammolar haqida gapirar ekan, shunday fikrlarni bayon qiladi: "Yozuvning mukammalligi shu xalq madaniyatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Kirillitsaga asoslangan hozirgi o'zbek yozushi tilimizdagi milliy so'zlarning nozik farqlarini ifoda eta olmaydi... Lotin yozushi dunyodagi yozuvlar orasida eng takomillashganidir. Uni milliy til xususiyatlariga moslashtirish oson. 1929-yildan 1939-yilgacha davom etgan o'n yillik tajriba lotin yozuvining o'zbek tiliga juda mos ekanligini ko'rsatgan edi"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Ubaydulla Karimovning matbuotda e'lon qilingan "Madaniy millat bilan bir qatorda" maqolasi ham milliy yozuv uchun lotin alifbosining afzallikkari qayd etilgan. Muallif maqolasini ushbu jumlalar bilan yakunlaydi: "...fan va texnika yuqori sur'atlar bilan taraqqiyot

---

<sup>1</sup> Қораев С. Ёзувимиз такомилга муҳтоҷ./Ўзбекистон адабиёти ва санъати газ. 1991 йил 23 август, 34-сон, 5-бет.

etaryotgan hozirgi paytda umumbashariy yutuqlardan unumli foydalanish hamda bundan buyon ham ilg‘or madaniy millatlar bilan bir qatorda kelajak tomon odim tashlash uchun lotin yozuviga o‘tish aqlga muvofiq ko‘rinadi”<sup>1</sup>.

Bu ruhdagi maqola va chiqishlar ko‘payib bordi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi muxbir a’zolari I.Qo‘chqortoyev, A.Hojiyev, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O.Yoqubov, filologiya fanlari doktorlari N.Mahmudov, E.Begmatov, filologiya fanlari nomzodlari. A.Jobborov, A.Rafiyev va A. Madvaliyevlar singari obro‘li jamoa tomonidan “Xalq so‘zi” gazetasida “Tilimiz jozibasining tilsimi” nomli maqola e’lon qilindi<sup>2</sup>. Unda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining yangi loyihasi gazetxonlar diqqatiga havola qilindi. 1929 yilda Samarqandda imlo bo‘yicha o‘tkazilgan qurultoyda qabul qilingan lotin harfli alifbo yangi alifbo uchun asos sifatida taklif qilindi (qarang: 3 jadval).

Falsafa fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Qo‘chqor Xonazarov va falsafa fanlari nomzodi G.Mansurova hammuallifligidagi “Alifbo xususida” maqolasida mustaqillik siyosatining bosh maqsadi xalqimizning toptalgan obro‘sini qayta tiklash, O‘zbekistonni jahonning taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqish ekanligi ta’kidlanib, ana shu ulug‘ maqsadlar yo‘lida milliy alifbo ham xizmat qilishi lozimligi ko‘rsatilgan<sup>3</sup>.

Alifboni o‘zgartirish zaruratinini akademik Erkin Yusupov shunday izohlagan: “Til taraqqiyotida alifboni o‘zgartirishning ikki sababi bor: biri – mavjud alifbo imkoniyatlari til taraqqiyotidan orqada qolgani, uning yangi bosqichidagi talablarga javob bera olmagani; ikkinchisi esa, bir millat, xalq, mamlakat boshqalar tomonidan zabit etilib, mahalliy imkoniyatlar zo‘rlik bilan ta’qib etilganligidadir<sup>4</sup>”. Bizningcha, o‘tgan asr 20-yillarida arab alifbosи asosidagi yozuvimizning isloh qilingani, ko‘p o‘tmay undan voz kechilib, lotin harfli

---

<sup>1</sup> Каримов У. Маданий миллат билан бир каторда. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газ. 1992 йил 29 май, 22-сон, 5-бет.

<sup>2</sup> Муаллифлар жамоаси. Тилимиз тилсимининг жозибаси./Халқсўзи, 1993 йил 28 июль., 4-бет.

<sup>3</sup> Хоназаров К., Мансурова Г. Алифбо хусусида./Халқ сўзи, 1993 йил 9 октябрь, 3-бет.

<sup>4</sup> Юсупов Э. Ўзбек миллий алифбоси (давра сухбати). /Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993 йил, 13 август, 2-бет.

yozuvga o‘tilishi yuqorida keltirilgan ko‘chirmaning birinchi sababiga to‘g‘ri keladi. Bizning kirill harfli o‘zbek alifbomizdagi xato va kamchiliklar, shu tufayli tug‘ilgan yangi alifboga o‘tish zarurati esa ko‘rsatilgan ikkinchi sabab bilan izohlanadi.

Ko‘pchilik filolog, tarixchi va faylasuf olimlarning fikricha, 1929 yilda qabul qilingan lotin-o‘zbek alifbosidan kirill asosidagi alifboga o‘tishning aslida o‘zbek xalq uchun zarurati bo‘lmagan. Alifboning o‘zgartirilishi o‘zbek xalqining yozuvini tuzatish uchun emas, balki hukmron tuzum manfaatidan kelib chiqib amalgaga oshirilgan. Bu jarayon to‘la majburiyat ostida kechgan. Barcha sohalarda rus tilining to‘la amaliyoti uchun ishlar olib borildi. Shu maqsadda rus tilini milliy maktablarda o‘qitishni yengillashtirish, umuman rus tili ruhini o‘zbek xalqi yozuviga, tiliga singdirish nazarda tutildi. Bu ishlar avvalo alifbo tuzishdan boshlandi. Kirillcha o‘zbek alifboda o‘zbek tilining tovush-talaffuz xususiyatlari hisobga olinmadidi, balki u rasmiy mafkura talablariga moslashtirildi. Rus alifbosiga xos harflar va belgilar deyarli aynan ko‘chirildi<sup>1</sup>

Kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosining o‘zbek tili tovush tizimiga mos bo‘lmaganligini ushbu alifbo qabul qilingach (1940), o‘zbek tilining imlo qoidalari oradan 16 yil o‘tgandan so‘ng, ya’ni 1956-yildagina tasdiqlanganidan ham bilish mumkin. Chunki nomukammal, tilning milliy xususiyati asoslariga qurilmagan alifbo imlo qoidalaring tez va to‘g‘ri ishlab chiqilishiga to‘sqinlik qildi. Alifbodagi kamchiliklar imlo, alifbosiga o‘tish arafasida tilshunos olimlar, mutaxassislar, ona tili o‘qituvchilari, ziyolilar, keng jamoatchilik tomonidan kirill-o‘zbek alifbosidagi kamchilik sifatida ko‘rsatilgan fikr-mulohazalarini umumlashtirib, quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- unli harflar sonining unli tovushlar sonidan kam ekanligi, ya’ni tildagi barcha unli fonemalar uchun harflar olinmaganligi;
- qator unli harflar o‘zbek so‘zlarida bir xil, rus tilidan olingan so‘zlarda boshqa xil tovushlarni bildirishi;

---

<sup>1</sup> Кўчкортоев И. Ўзбек миллий алифбоси (давра сухбати) /Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993 йил, 13 август, 2-бет.

- bir qancha tovush uchun harflar tayin etilmaganligi;
- o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan tovushlar uchun harf va belgilar kiritilganligi.

Bu kabi kamchiliklar bois alifbo va imlo birligi, imlo va talaffuz munosabati kabi muhim masalalar to‘g‘ri hal qilinmadi, imloda istisnolar, qo‘sishimcha qoidalar ko‘paydi, o‘qish-o‘qitish ma'lum ma'noda qiyinlashdi.

Alifboni almashtirish oson ish emas. Avvalo, buning uchun juda katta mablag‘ sarflash zarur bo‘ladi. Ikkinchidan, alifboni almashtirish bilan hamma ma'lum ma'noda savodsizga aylanadi, yangitdan savod chiqaradi. Ammo shularga qaramay, o‘zbek xalqining kelajagini o‘ylab va bu istiqbolda o‘z samarasini ortig‘i bilan qaytarishini ko‘zda tutib O‘zbekiston Respublikasi o‘zbek lotin alifbosiga o‘tishga qaror qildi. O‘zbek kirill alifbosini almashtirish haqida gap boshlangandan keyin jamoatchilikka ikki nuqtai nazar havola qilinadi: 1) o‘zbek kiril alifbosini talab darajasida o‘zgartirib saqlab qolish; 2) o‘zbek kiril alifbosidan voz kechib, avvalgi alifbomizga qaytish. Ko‘pchilik ikkinchi nuqtai nazarni yoqlab chiqdi, o‘zbek arab alifbosini va o‘zbek lotin alifbosini targ‘ib etish avj oldi. Nihoyat, ko‘pchilik turkiyzabon millatlar bilan bahamjihat o‘zbek lotin alifbosiga qayta o‘tish ma'qul topildi. Bunday qaror ijtimoiy-siyosiy jihatdangina emas, balki madaniy-ma'rifiy jihatdan ham to‘g‘ri.

Biz o‘zbek lotin alifbosini tanladik. Bunda juda ko‘p omillar hisobga olindi, albatta.

Birinchidan, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini, ayniqsa, kelajagini o‘ylab ish tutish lotin alifbosini tanlash to‘g‘ri bo‘lganini ko‘rsatdi. O‘zbekiston Respublikasi dunyo miqyosiga chiqmoqda. G‘arb sivilizatsiyasi tomon harakat qilar ekanmiz, alifboni tanlashda ham buni hisobga olindi G‘arb dunyosidagi eng taraqqiy etgan millatlarning deyarli barchasi lotin harflari asosidagi milliy alifbolar bilan ish yuritadi. Umuman, lotin alifbosi – dunyoda eng keng tarqalgan alifbo.

Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dunyo miqyosiga chiqish, xorijiy davlatlar bilan bevosita diplomatik munosabatlar o‘rnatish dunyoda eng keng tarqalgan tillarni – ingliz, ispan, fransuz, nemis tillarini bilishimizni taqozo

etmoqda. Lotin alifbosiga o‘tilishi o‘zbeklarning g‘arb tillarini o‘rganishini yengillashtirdi.

Uchinchidan, lotin alifbosiga o‘tish masalasini faqat o‘zbeklargini ko‘tarib chiqqani yo‘q, balki ko‘pgina turkiyzabon millatlar ham shu yo ‘lni tutdilar.

Shu o‘rinda yana bir holatni alohida ta’kidlash joiz. Avvallari alifboni almashtirish yuqorida berilgan ko‘rsatma bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, bu gal dastlab ziyolilarimizning o‘zi tashabbus ko‘rsatdi va bu tashabbusni xalqimiz va hukumatimiz qo‘llab-quvvatladi<sup>1</sup>.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy istiqlolni mustahkamlash maqsadida ijtimoiy sohaga, xususan, milliy qadriyatlarni tiklash va e’zozlashga alohida e’tibor qaratildi. Ona tili va milliy yozuv ana shunday buyuk qadriyat sifatida mustaqil davlatimizning har tomonlama kamol topishi hamda umumjahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shu maqsadda Respublikamizda 1993 yil 2 sentyabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida» qonun qabul qilindi.

Aytish kerakki, 1991-92 yillarda o‘zbek yozushi muammolari bilan bog‘liq yangi davr boshlangan edi: bu davrda ruschalahtirilgan o‘zbek alifbosini boshqa tizimdagagi alifbo bilan almashtirish g‘oyasi paydo bo‘ladi va shu g‘oya atrofida to‘rt xil yo‘nalish shakllanadi. *Birinchi yo‘nalish* tarafdorlari o‘zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitga ko‘chirish masalasini o‘rtaga qo‘yadi; *ikkinchi yo‘nalish* tarafdorlari arab grafikasidagi eski o‘zbek yozuviga qaytishni yoxud uni (eski yozuvni) ma'lum vaqt amaldagi yozuv bilan parallel qo‘llashni, shu tarzda bu ikki yozuvdan birining tanlanishini vaqt ixtiyoriga berishni taklif qiladilar; *uchinchi yo‘nalish* tarafdorlarining aniq shakllangan xulosa va takliflari bo‘lmasa-da, ularning fikrlarida qadimgi turkiy (urxun) alifbosini tiklashga moyillik bordek tuyuladi; *to‘rtinchi yo‘nalish* tarafdorlari esa amaldagi alifboni ma'lum o‘zgarishlar bilan saqlash kerakligini aytishadi.

---

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. – Тошкент: Университет, 1999. – Б.15-16.

Yuqoridagi yo‘nalishlarning tarafдорлари о‘rtasidagi bahslar, oxir oqibatda, o‘zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifboga ko‘chirish g‘oyasining ustun kelishi bilan yakunlanadi.

O‘zbek yozuvini rus grafikasiga asoslangan alifboden boshqa alifboga ko‘chirish masalasi aslida 1991-1992 yillarda ko‘tarildi. Uning kun tartibiga qo‘yilishini quyidagicha izohlash mumkin:

a) amaldagi alifboning milliy va umumturkiy jihatlarini mustahkamlash yuzasidan uzoq yillar davomida olib borilgan ishlar (bahslar, munozaralar, taklif-tavsiyalar) natija bermadi;

b) sobiq SSSRdagi turkiy xalqlar orasida yozuvni rus grafikasidan boshqa tizimga ko‘chirish harakati boshlanib ketdi;

v) 1991 yilning 18-20 noyabrida Turkiyada (Istanbuldagi Marmara universitetida) «Qardosh turk alifbolari» muammosiga bag‘ishlangan xalqaro simpozium o‘tkazildi, unda ham lotin grafikasi asosida turkiy alifbolar tuzish g‘oyasi targ‘ib qilindi.

1993 yilning 2 sentyabrida o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n uchinchi sessiyasi "Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida" qonun qabul qiladi.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI **LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O‘ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO‘G‘RISIDA**

*(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 331-modda*

Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o‘zbek yozuvining lotin alifbosiga o‘tilgan 1929–1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarini inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan, quyidagi 31 harf va 1 ta tutuq belgisidan iborat o‘zbek alifbosini joriy etilsin.

**1-modda.** Lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosini joriy etish bilan birga O‘zbekiston xalqining milliy iftixori bo‘lmish bebahohi ma’naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirillitsani o‘rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi.

Qonunga muvofiq yangi o‘zbek alifbosining tarkibi quyidagi 31 harf va 1 ta tutuq belgisidan iborat deb belgilanadi:

Lotincha			Kirilcha	Lotincha			Kirilcha
Harflar			Harflar	Harflar			Harflar
Bosma	Yozma	Talaf-fuz		Bosama		Yozma	Talaf-fuz
1	Aa		a	Aa	17	Rr	re
2	Bb		be	Bb	18	Ss	es
3	Dd		de	Dd	19	Tt	te
4	Ee		e	Ee	20	Uu	u
5	Ff		ef	Ff	21	Vv	ve
6	Gg		ge	Gg	22	Xx	xa
7	Hh		he	Hh	23	Yy	ye
8	Ii		i	Ii	24	Zz	ze
9	Jj		Je (Jõra)	Jj (Jo‘ra)	25	Ch ch	che
10	Kk		ka	Kk	26	G‘g‘	g‘a
11	Ll		el	Ll	27	Ng ng	ng
12	Mm		em	Mm	28	O‘o‘	o‘ (o‘rdak)
13	Nn		en	Nn	29	Sh sh	she
14	Oo		o (ota)	Oo (ota)	30		
15	Rr		re	Pp			
16	Qq		qa	Qq	31	(‘) — tutuq belgisi (apostrof)	

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kenashi axborotnomasi. 1993-yil, 9-son, 331-modda).

**1995-yilning 6-mayida** O‘zbekiston Oliy Majlisi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish kiritadi. Unda shunday deyiladi:

1. 1-moddadagi "31 harf va 1 ta tutuq belgisi (apostrof)" dan so‘zlari "26 ta harf va 3 ta harflar birikmasi" so‘zlari bilan almashtirilsin.
2. Cc, Jj harflari mustaqil belgi sifatida alifboden chiqarilsin.
3. Ōō harfi O‘o‘ shaklida, □□ harfi G‘g‘ shaklida, Şş harfi Sh sh shaklida, Çç harfi Ch ch shaklida, Ññ harfi Ng ng shaklida, Q harf belgisi q shaklida ifodalansin.
4. Aa, Ii, Gg, G‘g‘ ,Qq, O‘o‘, Zz harflari va Ch ch harflari birikmasining yozma shakli tegishlicha tarzida ifodalansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.KARIMOV.

Shunday qilib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining o‘zgartirilgan yangi varianti quyidagi ko‘rinishda tasdiqlanadi:

	<b>Bosma</b>	<b>Yozma</b>	<b>Harf nomi</b>		<b>Bosma</b>	<b>Yozma</b>	<b>Harf nomi</b>
1	Aa	Aa	a	16	Q q	Q	qa
2	Bb	Bb	be	17	Rr	Rr	re
3	Dd	Dd	de	18	Ss	Ss	se
4	Ee	Ee	e	19	Tt	Tt	te
5	Ff	Ff	ef	20	Uu	Uu	u
6	Gg	Gg	ge	21	Vv	Vv	ve
7	Hh	Hh	he	22	Xx	Xx	xe
8	Ii	Ii	i	23	Yy	Yy	ye
9	Jj	Jj	je	24	Zz	Zz	ze
10	Kk	Kk	ka	25	O‘o‘	O‘o‘	o‘

1 1	Ll	<i>Ll</i>	el	26	G‘g‘	<i>G‘g‘</i>	g‘e
1 2	Mm	<i>Mm</i>	em	27	Sh sh	<i>Sh sh</i>	she
1 3	Nn	<i>Nn</i>	En	28	Ch ch	<i>Ch ch</i>	che
1 4	Oo	<i>Oo</i>	o	29	Ng ng	<i>Ng ng</i>	nge
1 5	Pp	<i>Pp</i>	pe				

Respublika Oliy Majlisi qaroriga binoan 1996 yil 2 sentyabridan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida va maktabgacha tarbiya muassasalarida yangi o‘zbek alifbosini va imlosini o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulotlar boshlandi, davlat muassasalari va tashkilotlarda lotin yozuvidagi o‘zbek alifbosini o‘rgatish kurslari ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 21-dekabrdagi «Davlat tili haqida»gi qonunining yangi tahlilini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida»gi qarorida lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosini o‘rganish barcha bosqichdagi o‘quv yurtlari va muassasa, tashkilotlarda 2005-yilning birinchi sentyabrida tugallanadi hamda shu muddatdan boshlab respublikamizda barcha sohalarda davlat tilida ish yuritish yangi alifboda olib boriladi deb ko‘rsatildi. Bu muddat keyin 2010 yil etib belgilandi. Hozircha masala ochiqligicha turibdi.

## 2.2. Yangi o‘zbek alifbosidagi muammolar va uni isloh qilish jaryoni

Hozirgi lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi qabul qilinganiga 23 yil bo‘ldi. O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan 1995-yilning 5-6-may oyida qabul qilingan tomonidan qabul qilingan respublika qonuni o‘sha paytdanoq boshlang‘ich ta’lim tizimiga joriy qilindi. Bu alifbo va imloda savod chiqargan o‘quvchilar hozirda o‘ttiz yoshga kirdi. Lekin hali-hanuz mamlakatimizda o‘zbek tilini bu yozuvga o‘tkaza olmadik. 1993-yil 2.-sentabrda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida qonun chiqqan bo‘lsa-da bu to‘g‘rida 1995 yilda yangi tahrirdagi qonun qabul qilindi. O‘shanda yangi yozuvga to‘liq o‘tish muddati 2005-yil etib belgilangan edi. Keyinchalik bu muddat o‘zgartirilib 2010-yil deb

ko'rsatildi. Bundan beri yana 8 yil o'tdi hamki, bizda respubdika qonuni ijrosi bajarilmay kelmoqda. Bunga bir qancha omillar sabab bo'ldi deb ko'rsatish mumkin:

1. Siyosiy omil. 2. Zarur ehtiyoj. 3. Yozuvdagagi ayrim kamchiliklar.

1. Siyosiy omil. Ma'lumki, O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. Ularning asosiy qismi o'zbeklarni tashkil qilsa-da, rusiyabon aholiham jamiyatning ma'lum qismini tashkil etadi. Jamiyatda tinchlik-totuvlikni saqlab qolish o'zbeklardan boshqa millat vakillarining o'z tilida yoki o'zi tanlagan tilda ta'lim olish huquqi konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan. Shu bilan birga davlat tili qonunini ham ro'yobga chiqarish lozimki, bu rusiyabon aholiga ham taalluqlidir. Ammo o'zbek tilini davlat sifatida jamiyat va boshqaruvning, xalq hayotining barcha sohalarida to'liq amal qilishini ta'minlash sekin-astalik bilan kechadigan jarayon. Har holda davlatimiz siyosati shu yo'lni, ya'ni evolyusion o'tishni ma'qul ko'rdi. Davlat tili masalasining millatlar, davlatlar o'rtasidagi o'zaro mojarolarga sabablardan biri bo'lganini Rossiya va Ukraina misolida kuzatildi.

2. Savodi kirill-o'zbek alifbosida chiqqan va shu yozuvda ish yuritayotgan aholi yangi alifbo va imloga zarur ehtiyoj bo'limgani bois bunga rag'bat bildirmapti. Faqat xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimidagina o'qish-o'qitish, ish yuritish yangi alifbo va imloda olib borilmoqda. Oliy ta'limdan so'ng yetishib chiqqan mutaxassislar o'z sohasi bo'yicha ishga borgandan so'ng u yerda amal qilinayotgan kiril-o'zbek yozuviga moslashishga majbur bo'lmoqda. Respublika matbuotining 70 foizi kirill-o'zbek alifbosida. Bu esa yangi yozuv joriylashuvini sustlashtirmoqda.

3. Joriy alifbo va imlodagi ayrim kamchiliklar. Ma'lumki, dunyodagi tillar uchun qabul qilingan alifbo hech qachon muayyan tildagi nutq tovushlarini yuz foiz ifodalagan emas. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Masalan, *darang 'ladi, dong*, *qo 'ng 'iz* so'zlaridagi **ng** tovushi alifbomizda o'z belgisiga ega emas. U yozuvda *n* va *g* harflari birikmasi **ng** bilan ifodalanadi. O'zbek tili va adabiyoti universiteti tashabbusi bilan uyushtirilgan, alifbo va imlomizni

takomillashtirishga qaratilgan fikrlar to‘qnashuvi ijtimoiy tarmoqlarda bir yarim yildan beri qo‘rilmoxda, ba’zan matbuotda muhokama qilinmoqda. Ularda bildirilayotgan fikr-mulohazalar, ilgari surilayotgan takliflar turli-tuman bo‘lsa-da, yozuvimiz muammolarini hal qilish maqsadiga qaratilgan.

Alifbo va imloni takomillashtirish bo‘yicha bildirilayotgan fikrlar mulohazalar orasida quyidagi qarashlar ustun:

a) *sh*, *ch*, *ng* harf birikmalarini bitta harflar bilan ifoda etish. Ya’ni: Sh sh o‘rniga Š š; Ch ch o‘rniga Čč; NG ng o‘rniga Ņ ř harflarini olish (1993-yil 2-sentyabrdan qabul qilingan variantdagi kabi);

b) harf belgisiga ega bo‘lgan O‘o‘ o‘rniga Ō ö; G‘ g‘ o‘rniga Ģ ġ harflarini olish, bosma o‘ va g‘ harflarini ularning yozma shakli bilan bixillashtirish;

d) rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o‘zlashgan *sirk*, *sirkul*, *sex* kabi so‘zlar tarkibidagi birinchi tovush uchun s harfini qabul qilish.

e) sirg‘aluvchi *j* (*jurnal* so‘zi boshidagi undosh) va qorishiq *j* (*jo‘ja* so‘zi bo‘g‘in boshidagi undoshlar) uchun ayrim harflar olish.

Masalan, professor Sh.Sirojiddinov bu borada shunday fikr bildiradi: “*sh*, *ch*, *ng* tovushlarini ifodalashda ham murakkablik yuzaga keldi, ya’ni bir tovush ikkita harf bilan – harflar birikmasi orqali ifodalash yozuv amaliyotida ko‘p harf ishlatishga, ko‘p kuch va vaqt sarflashga olib keldi”. Shuningdek, “O‘o‘ va G‘g‘ harflarining bosma shaklini yozish murakkablashdi, ya’ni **o** va **g** harflarining yoniga maxsus diakritik belgi (‘) qo‘yiladigan bo‘ldi. Bu esa lotin yozuvidagi matnlarning kengayib ketishiga sabab bo‘ldi, Masalan, *o‘g‘il* – *o‘g‘il* kabi. Ayni paytda lotin yozuvidan foydalanishda tutuq (‘) va diakritik (‘) belgilarni chalkashtirish holatlari ko‘p”.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (ToshDO‘TAU) ishchi guruhi loyihasi sifatida Nizomiddin Mahmudov nomidan bilan internet tarmog‘ida taqdim qilingan maqolada ham yuqoridagi fikrlar bilan mos. Faqat olim jo‘ja, jo‘ra, jon, jahon, tijorat, rivoj kabi so‘zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun **C** **c** (“dj”) harfini olish;

2) jurnal, ajdar, garaj, tiraj kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi jarangli sirag‘luvchi undoshni ifodalash uchun J j (“j”) harfini belgilashni taklif qilgan.

Filologiya fanlari nomzodi T.Tog‘ayev esa alifboga o‘zgartirish kiritishga qarshi chiqadi: “harf birikmali (*sh*, *ch*, *ng*) o‘rniga bitta harf, qo‘sishimcha belgili harflar (O‘, G) o‘rniga yaxlit belgili harflar bo‘lgani afzal. Ammo joriy alifbomiz shulsiz ham xalqimizning ta’lim-tarbiya, savodxon chiqarish va oshirish, umuman, yozuv bilan bog‘liq barcha yumushlariga zarur darajada bemalol yarab turibdi Aksincha, alifboga yana, navbatdagi o‘zgartirish kiritish bilan kelib chiqadigan muammolar taraqqiyotimizga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin”. Olimning fikricha, hozir alifbo yana almashtiriladigan bo‘lsa, yana qancha hujjatlar, kitoblar, darslig-u qo‘llanmalar – xullas, ancha narsalarni o‘zgartirishimiz kerak. Bu ko‘p xarajat, mehnatni talab qiladi, ayrim chalkashliklarga, hatto talafotlarga olib keladi. Qolaversa, jahon hamjamiyati oldida beburd bo‘lib qolishimiz ham mumkin. Negaki, bu alifbo va imlo borasida so‘nggi 100 yil ichida qilingan oltinchi islohot bo‘ladi. Chunki:

- alifboni almashtirish 1928, 1940, 1993-yillarda bo‘lib o‘tdi, 65 yil ichida o‘zbek alifbosi 3 marta boshqasiga o‘zgartirildi;

- alifbo va imlo islohoti 1921, 1922, 1923, 1934, 1995-yillarda amalga oshirildi, 67 yil ichida o‘zbek imlosi 5 marta tuzatildi. Yana isloh qilinsa, bu 6-si bo‘ladi.

Inglizlarning yozuviga qarasak, bir so‘zdagi nutq tovushlari va ularni ifodalaydigan harflar ko‘pincha bir-biriga mos kelmaydi, ya’ni necha zamondan buyon bir narsani yozib, boshqa narsani talaffuz qiladilar, lekin bu ularning yozuvlarini to‘g‘ri yuritish va savodxonligiga hyech to‘sinq bo‘layotgani yo‘q.

Ishchi guruhning bo‘lib o‘tgan yig‘ilishlarida (2016-yil 14-dekabr) universitetimizning professor-o‘qituvchilaridan prof. Z.Xolmonova, prof. M.Qurbanova, dots. T.Tog‘ayevlar joriy alifboga o‘zgartirish kiritishga qarshi bo‘ldilar. Joriy alifbomiz shulsiz ham xalqimizning ta’lim-tarbiya, savodxon chiqarish va oshirish, umuman, yozuv bilan bog‘liq barcha yumushlariga zarur darajada bemalol yarab turibdi. Aksincha, alifboga yana, navbatdagi o‘zgartirish

kiritish bilan kelib chiqadigan muammolar taraqqiyotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, deya fikr bildirdilar. Faqat imloni takomillashtirish, joriy imloga tuzatish va qo'shimchalar kiritish fikrini yoqlab chiqdilar.

Biz ham bu masalada muhtaram olimlarimizning ko'pchilik fikrlariga qo'shilamiz. Lekin shu paytgacha ommaviy axborot vositalarida munozaraga qatnashgan ko'pchilikning fikrini, takliflarini inobatga olsak, birinchidan, *sh*, *ch*, *ng* harf birikmalarining har qaysini bitta harf bilan ifoda etish lozim. Shunda biz ortiqcha urinish, harakatdan qutilish bilan birga bu masalada qardosh turkiy xalqlar alifbosiga uyg'unlashamiz.

Ikkinchidan, **O'** o'rniga **Ö** ñ; **G'** g' o'rniga **Ğ** ğ harflarini olish bosma *o'* va *g'* harflarini ularning yozma shakli bilan bixillashtirishadi hamda biz yozuvda *tutuq* va *harf belgisidagi chalkashliklardan qutilamiz*. Negaki, turli yozma matnlarda, reklamalarda *o'*, *g'* o'rniga *o'*, *g'* ni farqlamay yoki e'tibor bermay yozish shunchalar ko'p uchraydiki, yuqoridagi tadbir bilan bunga chek qo'yilar edi deb o'ylaymiz.

Rus tilidan o'zlashgan *sirk*, *sirkul*, *sex* kabi so'zlar tarkibidagi birinchi tovush uchun s harfini qabul qilishga hojat yo'q, chunki o'zbek tilida bunday tovushning o'zi yo'q. Nega biz boshqa tilda bo'lgan nutq tovushi uchun alifbomizda harf olishimiz kerak. Bu masalada (s tovushini o'zbek yozuvida ifodalashda) professor Sh.Rahmatullayev bergen qoidani to'g'ri deb hisoblaymiz.

Sirg'aluvchi *j* (*jurnal* so'zi boshidagi undosh) va qorishiq *j* (*jo'ja* so'zi bo'g'in boshidagi undoshlar) uchun alohida harflar olishni ham yoqlamaymiz. Ta'lim nuqtai nazaridan bu o'zini oqlamaydi. Chunki joriy alifboda sirg'aluvchi va qorishiq undoshlar uchun **J** *j* harfi bilan yozib kelishga o'rganib, bunga ko'nikma hosil qilganimizda, ularni ajratish chalkashlik tug'diradi.

Oxirgi yangilik sifatida ushbu ma'lumotni ham ishimizga kiritmoqdamiz. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini keng joriy etish va yanada takomillashtirish bo'yicha harakatlar rejasi" Respublika Bosh vazir A.Aripov va Prezident maslahatchisi X.Sultonovlar tomonidan shu yilning 15-may sanasi bilan imzolandi. Chora-tadbirlarning birinchi muddasida quyidagilar aks etgan:

“O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 1995-yil 6-maydagi qonunni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tilining asosiy qoidasini tasdiqlash haqida” 1995-yil 24-avgustdagi qarorini takomillashtiri”. Muddati - 2018 yilning sentyabr oyi. Buning mazmuni shuki, joriy alifbo va imlo takomillashtirilishi rasman e’lon qilindi. Shu yilning sentyabr oyida alifbo va imloga o‘zgartirish kiritilishi kutilmoqda.

## **II bob bo‘yicha xulosalar:**

1. O‘zbekistonning mustaqil davlatga aylanishi tufayli yuzaga kelgan sharoitlar, istiqlol mafkurasi talablari va imkoniyatlari o‘zbek tilining rivojiga yo‘l ochdi, ayni paytda o‘zbek tilining talab darajasidagi alifbosini yaratishni eng muhim masala sifatida kun tartibiga qo‘ydi.
2. Mustaqillikning daslabki yillardan mamlakatimizning yirik, taniqli ilm-fan, jamoat arboblari, mutaxassis olimlari o‘zbek tili uchun yangi alifboga o‘tish zarurligini, bu lotin yozuviga asoslangan alifbo bo‘lishi lozimligini yoqlab chiqdilar. Lotin yozuvi dunyodagi yozuvlar orasida eng takomillashgani, uning o‘zbek tili tabiatiga juda mos ekanligi e’tiborga olindi.
3. Lotin yozuvi asosidagi yangi alifboga xalqimiz majburiyatsiz, o‘z xohish-irodasi bo‘yicha o‘tdi. Bunda keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarini inobatga olgan holda yangi alifboning respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qilishi e’tiborga olindi.
4. O‘zbek tilini lotin alifbosiga to‘liq ko‘chirishning cho‘zilib ketishi sabablaridan biri joriy alifbo va imloda tuzatilishi lozim bo‘lgan kamchiliklar borligini, yangi imloni takomillashtirish zaruriyati mavjudligini o‘tgan davr yozuv amaliyoti ko‘rsatib berdi.

### **3-BOB. O‘ZBEK TILI ASOSIY IMLO QOIDALARINING ISHLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH**

#### **3.1. O‘zbek tilining yangi alifbosidagi asosiy imlo qoidalarining qabul qilinishi**

Yangi o‘zbek alifbosi 1995-yil 6-maydagi o‘zgarishlar bilan qabul qilingach, o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini ishlab chiqish va qabul qilish kun tartibiga chiqdi. Imlo qoidalarini tuzish uchun respublikaning taniqli, ko‘zga ko‘ringan mutaxassis olimlaridan iborat ishchi guruh tashkil etildi. Ish boshida Azim Hojiev, Shavkat Rahmatullaev, Nizomiddin Mahmudov, Yo‘ldosh Abdullaev, Karim Nazarov, Mazluma Asqarova kabi yirik olimlar turdi. 1994-yilning 16-aprel kuni Toshkentda republika ilmiy jamoatchiligi vakillarining yig‘ilishida loyiha dastlabki tarzda muhokama qilindi. Unda respublikaning barcha viloyatlaridan yuzga yaqin olim, amaliyotchi mutaxassislar qatnashdi. Muhokamada ishtirok etganlar o‘zbek tilining yangi imlo qoidalari to‘plamini ma’qullagan holda loyihani yana ham mukammallashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan fikr-mulohazalarini ham bildirdilar.

Mazkur yig‘ilish qarori asosida “Ma’rifat” gazetasining 1994-yil 6-iyul, “Xalq so‘zi” gazetasining 7-iyul sonida yangi imlo qoidalarining qayta ishlangan loyihasi e’lon qilindi va uning umumxalq muhokamasi salkam ikki oy davom etdi. Xullas, muhokamadan o‘tib tasdiq uchun taqdim qilingan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” qisqa muddatda bajarilgan, osongina mehnatning mahsuli emas. Uni tuzgan ishchi guruhi a’zolari bo‘lsa-da, bu qoidalari to‘plami mamlakatimizdag‘ ming-minglab ziyorilarning uzoh yillardan beri ilmiy-amaliy asosda, bamaslahat olib borgan ishlari samarasidir<sup>1</sup>.

“Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi qonun 1995-yil 6-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qayta ko‘rib chiqildi va unda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Mazkur qaror asosida «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari» ishlab

---

<sup>1</sup> Хожиев А. Катта меҳнат маҳсулли // Маърифат, 1994-йил, 14-сентябрь, 43-сон, 3-бет.

chiqilib, 1995-yil 24-avgustda Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi.

Avvalo, aytish kerakki, “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” loyihasi Respublika Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan “Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan yangi alifbo asosida tuzildi. Qoidalar to‘plamini yaratishda qoidatalab til hodisalarini e’tibordan chetda qoldirmaslikka, ularni to‘la qamrab olishga harakat qilingani, natijada amaldagi (kirill alifbosi asosidagi) imlo qoidalariiga nisbatan mukammal qoidalar to‘plami yaratilgani ishchi guruhi boshlig‘i A. Hojiyevning “Katta mehnat mahsuli” nomli maqolasida e’tirof etilgan.

Lotin harflar asosidagi yangi alifboda ya, yu, yo harflari, shuningdek, ayirish (ъ) va yumshatish (ь) belgilari yo‘qligi ma'lum. Muhokama materiallarining ayrimlarida ilgari shu harf va belgilar ishlatilgan so‘zlarning endi qanday yozilishi haqida qoida berish kerakligi aytilgan. Olimning yuqoridagi maqolada qayd etishicha, ishchi guruhi Loyihani tuzayotganda bu masalaga alohida e’tibor berdi. “Shu narsa ma'lum bo‘ldiki, birnichidan, bunday so‘zlarning imlosi haqida yagona qoida berish mumkin emas, ayrimlarining imlosi uchun esa umuman qoida talab qilinmaydi. Masalan, **сентябрь, октябрь, ноябрь** so‘zлari yangi imloda **sentabr, oktabr, noyabr** tarzida yoziladi. Demak, birinchidan, “**я** harfi o‘rnida endi ikki (y va a) harf qo‘llanadi” degan yagona qoida berib bo‘lmaydi. Ikkinchidan, “ilgari oxirida yumshatish belgisi (ь) qo‘llangan so‘zlar endi yumashatish belgisiz yoziladi” degan qoidaga ehtiyoj yo‘q. Bu xildagi so‘zlarning imlosi imlo lug‘atlarida qayd etiladi”<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, matbuot sahifalarida ushbu loyihaga munosabat bildirilgan maqolalar ham chiqa boshladi. Masalan, filologiya fanglari nomzodi H.Yo‘ldosheva hajman kichik maqolasida juda o‘rinli takliflarni bergan. Ammo ular imlo qoidalariini ishlab chiqishda inobatga olinmay qolgan. Mutaxassis tomonida ilgari surilgan ayrim masalalar bugungi kunda yozuvimizda muammo

---

<sup>1</sup> Хожиев А. Катта меҳнат маҳсули // Маърифат, 1994-йил, 14-сентябрь, 43-сон, 3-бет.

bo‘lib turganini ta’kidlash lozim. Muallif shunday yozadi: “Imlo qoidalarini ma’qullash va uning yutuqlarini e’tirof etish bilan birga unga ayrim qo‘sishimchalar va tuzatishlar kiritish lozimdir: 2. Loyihada o‘zbek tiliga yot bo‘lgan yolashtagan unlilar (е, ё, ю, я)dan voz kechilishi ijobiy hodisadir. Lekin ular endi qay tarzda yoziladi, depag savol tug‘ilishi, tabiiy. Masalan: *oktyabr* deb yozish kerakmi yoki o ‘ktyabr? *Broshyura-chi?* *Broshyura* debmi yoki broshura deb yoziladimi? Demak, yolashtagan unlilarning har biriga qoida berish darkor”<sup>1</sup>.

Rus tili va u orqali boshqa tillardan o‘zlashgan, tarkibida ye, yo, yu, ya bo‘lgan xorijiy so‘zlarning o‘zbek tilida qanday yozilishi imlo qoidalaridan tashqarida qoldi. To‘g‘ri, yangi imlo qabul qilingach, ayrim qo‘llanmalarda bu xildagi so‘zlarning yozilish asosi ko‘rsatildi. Lekin bunga hamma ham qo‘silmadi. Ular rasmiy hujjat bo‘lmagandan keyin sentyabr, oktyabr kabi so‘zlarni lotin asosli imlomizda bir o‘rinda senabr va oktabr, boshqa joyda sentyabr va oktyabr yozila boshladi. Nashr etilgan imlo lug‘atlarda ham bu turlilik yuzaga keldi. Ayni paytda bu masalani hal qilish uchun joriy imloni takomillashtirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Xullas, **1995-yilning 24-avgustida** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan lotin grafikasi asosidagi yangi o‘zbek yozuvining asosiy imlo qoidalari tasdiqlanadi.

Yangi (lotin) o‘zbek □zuvining imlo qoidalari 1995-yilning 24-avgustida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o‘zida "O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari" nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi 7 bo‘limni o‘z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

Unlilar imlosi (1-7-qoidalalar).

Undoshlar imlosi (8-32-qoidalalar).

2. Asos va qo‘sishimchalar imlosi (33-37-qoidalalar).

3. Qo‘sib yozish (38-50-qoidalalar).

---

<sup>1</sup> Йўлдошева Х. Ёзувимиз йўлланмаси// Халқ сўзи, 1994 йил 28 июн. 149-сон, 2-бет.

4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar).
5. Ajratib yozish (57-65-qoidalar).
6. Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).
7. Ko‘chirish qoidalari (75-82-qoidalar).

Jami 82 moddadan iborat imlo qoidalari mavjud.

Aytib o‘tilganidek, “imloga aloqasi bo‘lmagan hodisalarga, shuningdek, qoida berish talab etilmaydigan til birliklariga yangi imlo qoidalari to‘plamida o‘rin berilmagani, bu bilan imlo qoidalari ixcham bo‘lishiga erishilgani” maqolada qayd etilgan. Ammo yozuv amaliyotida o‘tgan davr tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bir qator o‘zlashma so‘zlarning yozilishi qoidadan tashqarida qolib ketgan. Natijada hozirda yozuv amaliyotida bir so‘zni turlicha yozish hollari yuzaga keldi. Buni bartaraf etish uchun joriy imlo qoidalarni takomillashtirish talab etiladi. Biz bu haqda navbatdagi faslda fikr yuritamiz.

### **3.2. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarni takomillashtirish muammolari**

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmonida universitet jamoasi oldiga qo‘yilgan bir qator ulug‘vor vazifalar sirasida “o‘zbek tilining asl tabiatini va xususiyatlarini to‘la aks ettiradigan mukammal akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish, uning tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash, turli mavzu va yo‘nalishlar bo‘yicha lug‘at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish” kabilar qo‘yilganki, bu borada universitet professor-o‘qituvchilari izchil izlanishlar olib borishmoqda. Farmonda ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish uchun dastlabki kunlardayoq professor N.Mahmudov rahbarligida universitet huzurida Respublikamizdagi taniqli tilshunos-olimlardan, umumiy o‘rtta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari, Xalq ta’limi vazirligi qoshidagi ta’lim markazi xodimlaridan iborat “O‘zbek tili alifbosi va joriy imlo qoidalarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash bo‘yicha ishchi guruh”

tuzildi. Hozirgacha “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ishchi guruhning lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi va imlosini takomillashtirish borasidagi takliflari loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu loyiha ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilindi. Xususan, filologiya fanlari doktori Saodat Muhamedova tomonidan *Facebook*ning “O‘zbek tili jonkuyarlari” saytida universitet Ishchi guruh faoliyati, bajargan ishlari tanishtirib borildi. O‘zbek tilidagi juda ko‘p internet resurslarida o‘zbek tili alifbosi va joriy imlosi qoidalarini takomillashtirish yuzasidan jamoatchilik fikri yig‘ildi, saralandi, ularda bildirilgan aniq takliflar ishchi guruhga taqdim qilindi. Shuningdek, bu masalani ishlab chiqishda O‘zbekistonning ko‘plab oliv ta’lim muassasalari mutaxassis olimlari, shuningdek, masalaga befarq bo‘lmagan yurtimiz fuqarolarining ziyoli qatlami vakillari o‘z fikr-mulohazalari, takliflari bilan qatnashdi.

Hozir biz Ishchi guruhning ishlari mazmuni, joriy alifbo va imloni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarini tahlil qilishdan oldin nega bunga ehtiyoj tug‘ilgani, nima uchun muammoni yechish zarurati o‘rtaga chiqqani to‘g‘risida fikr yuritsak, o‘rinli bo‘ladi.

Joriy imlo qoidalarida mavjud bo‘lgan ba’zi kamchilik va yetishsiz o‘rinlar o‘tgan davr mobaynida yozuv amaliyotida ko‘rinib qoldi. Garchi imlo loyihasini tayyorlab, uni amalga kiritgan ishchi guruhining o‘z vaqtida bu imlo qoidalari to‘plamini tuzishda “qoidalatalab til hodisalarini e’tibordan chetda qoldirmaslikka, ularni to‘la qamrab olishga harakat qilingani, natijada amaldagi (kirill alifbosi asosidagi) imlo qoidalariiga nisbatan mukammal qoidalari to‘plami yaratilgani” aytilsa-da, ayrim so‘zlarni va ularning tarkibiy qismlarini yozishda qoidadan chetda qolgan holatlar mavjudligi o‘zini ko‘rsatdi. Masalan **с** harfi, ayirish (ъ) va yumshatish (ъ) belgilari ishtirok etgan so‘zlarni yozishda, tarkibida **ë**, **ю**, **я** kabi yolashtigan unlilar bo‘lgan so‘zlar imlosida tahrirtalab, takomillashtirishga muhtoj o‘rinlar mavjud. Shu sababli shu paytgacha nashr etilgan imlo lug‘atlarida bir so‘z turlicha berilayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Ularni birma-bir ko‘rib o‘tmochimiz.

Rus tili orqali o‘zlashtirilgan so‘zlarda qo‘llanadigan **ё**, **ю**, **я** harfli so‘zlarni lotin alifbosida berish ancha munozarali. Masalan, **ё** harfli ruscha so‘zlarning o‘zbekcha imloda yozilishini olib ko‘raylik: *shofyor, rejissyor, direjyor, aktyor*.

Mazkur so‘zlarning tranliteratsiyasini ko‘rib chiqaylik. Agar ushbu so‘zlar kompyuter dasturlari orqali o‘girilsa, **shofyor, rejissyor, direjyor, aktyor** kabi so‘z shakllar yuzaga keladi. O‘zbek lotin alifbosida ularni to‘g‘ri yozishda bu to‘rtta so‘zga ikki xil yondashish lozim bo‘ladi: *шоффёр* va *актёр* so‘zlaridagi ё lotinchcha alifbomizga yo shaklida: **shofyor, aktyor; режиссёр, дирежёр** esa o shaklida: *режиссер, режисор* tarzida o‘giriladi. “Ayni mana shunday orfografik yechim o‘zlashmani qabul qiluvchi so‘z - o‘zbek tilining imloviy me'yorlariga mos keladi, chunki *shofyor* va *aktyor* shaklidagi yozuvlar hozirga qadar erishilgan talaffuzni ham saqlab qolishga xizmat qiladi”<sup>1</sup>.

Qayd etish kerakki, O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan tayyorlanib, chop etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”da (tuzuvchilar: E.Begmatov, A.Mirvaliyev.–T.: Akademnashr, 2013) *shofyor*, *rejissyor*, *direjyor*, *aktyor* so‘zlarining hammasida ë harfi bir xilda – yo shaklida: **shofyor, rejissyor, direjyor, aktyor** yozilgan bo‘lsa, A.Hojiyev va Sh.Rahmatullayev tomonida tuzilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”da<sup>2</sup> hamda T.Tog‘ayev, G.Tavaldiyeva, M.Akromova tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati”da<sup>3</sup> **shofyor, rejissor, direjor, aktyor** tarzida ko‘rsatilgan. Tilshunos olim R.Jomonov ham so‘zlarning keyingi yozilishini to‘g‘ri deb hisoblaydi.

Joriy imlo qoidalari loyihasini tuzgan ishchi guruh rahbari A.Hojiyev: “сентябрь, октябрь, ноябрь со‘zlari yangi imloda sentabr, oktabr, noyabr tarzida yoziladi... “я harfi o‘rnida endi ikki (y va a) harf qo‘llanadi” degan yagona yagona qoida berib bo‘lmaydi. Bularni qanday yozilishi imlo lug‘atlarida ko‘rsatiladi” deb qayd etgan va o‘zlarining imlo lug‘utlarida yuqoridagi so‘zlar aynan, *пляж*,

<sup>1</sup> Жомонов Р. О‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish va imlo muammolari.-Т.: O‘zbekiston, 2013. –Б. 97.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг имло луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1995.

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг кирилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. –Т.: Шарқ НМАК, 2015.

дубляж со‘злари esa *plaj*, *dublaj* шаклида берилган. Лекин Е.Begmatov, A.Mirvaliyevlar томонидан тузилиб, keyinroq чиққан имло lug‘атида бу со‘злар *sentyabr*, *oktyabr* ва *noyabr*, *plyaj*, *dublyaj* тарзida yo билан то‘лиқ ўзилган. О‘кувчи qaysi имло lug‘атига ishonishi kerak. Ayrim bu kabi o‘zlashgan со‘zlarning to‘g‘ri ўзилishiga имло qoidasi berilmagani sababli, ular имло lug‘атларida turlicha aks etmoqda.

“Yolashgan unlilar” орасида **io** билан ўзиладиган со‘злар ham salmoqli. **Juri, etud, plus, luks** каби со‘zlarning yangi o‘zbek alifbosida ўзилishida ham имло lug‘атларida turlilik mavjud. A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayevlar томонидан, shuningdek, T.Tog‘ayev va b. tarafidan тузилган имло lug‘атларida mazkur со‘злар таркibidagi yu harfi o‘zidan oldinga undoshning yumshoqroq talaffuziga ishorasi bois, yu ni o‘zbekcha ўзувда birgina u harfi bilan ifoda etganlar, ya’ni со‘злар shunday ўзилган: *juri, etud, plus, luks*. E.Begmatov, A.Mirvaliyevlar томонидан тузилган имло lag‘атида бу со‘злар ***jyuri, etyud, plyus, lyuks*** тарзida берилган. Ko‘rinadiki, endilikda takomillashtirilmoqchi bo‘layotgan имло qoidalarda таркibida yo, yu, ya harflari bo‘lgan rus tili va u orqali tilimizga o‘zlashgan со‘zlarning imlosini berish mutlaqo kerak bo‘lmoqda.

Keyingi paytdagi alifbo va imloni tuzatish borasida qo‘zgalgan bahsmunozaralarga ishtirok etgan T.Tog‘ayev ham joriy imloni takomillashtirish bo‘yicha o‘z qarashlarini ilgari surgan. Mutaxassis olimning ham o‘z maqolasida “O‘zbek tilining asosiy имло qoidalari”да ayrim со‘z va qo‘shimchalar ўзилishining qoidadan chetda qolgan holatlarini qoidalashtirish, ya’ni unga qo‘shimcha kiritish g‘oyat zarurligini ko‘rsatadi. Rus tili orqali kirib kelgan va таркibida yo, ya, yu, s harflari bo‘lgan ruscha va baynalminal ba’zi со‘zlarning ўзилishi qoidalashtirilmaganligi sababli bugungi kunda *rejissor – rejissyor, kompyuter – kompyuter, valuta – valyuta, kostum – kostyum, sentabr – sentyabr, flaga – flyaga* каби ayrim со‘zlarning nashr etilayotgan имло lug‘атларida ikki xil berilayotganini, bu kabi со‘zlarning bir xil ўзилishini ta’minlovchi qoida kiritish zarurligini qayd etadi. Sohaga aloqador jamoatchilikning ko‘pchiligi imloda qulaylikni e’tiborda tutib, tilimizga o‘zlashgan ruscha va u orqali yevropacha

so‘zлari tarkibidagi **ë**, **ю**, **я** harflarini lotin alifbosi asosidagi o‘zbek imlosida hamma o‘rinda ikki harf: **yo**, **yu**, **ya** harflari bilan (ya’ni: *kostyum*, *flyaga*, *oktyabr*, *rejissyor* va sh.k.) yozish tarafдори ekan, buni qabul qilish to‘g‘ri bo‘ladi deb hisoblaydi.<sup>1</sup>

T.Tog‘ayev Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ishchi guruhning ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan “lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi va imlosini takomillashtirish borasidagi takliflari loyihasi”da ko‘rsatilgan ba’zi fikrlarga qo‘shilmaydi: “ishchi guruhi joriy imlo qoidalaridagi 37-qoidaning 3-bandiga qarshi chiqqan. Ko‘rsatilishicha, “bog‘ga tarzida yozish qoidalashtirilgan, boshqa o‘rinlarda esa qanday talaffuz qilinsa, shunday yozish tavsiya qilingan, yagona tamoyil buzilgan”. Aslida, ushbu imlo qoidasi juda tushunarli, to‘g‘ri va mukammal”.

Shuningdek, muallif ishchi guruhi loyihasida 63-qoidaga bildirilgan e’tirozni yoqlamaydi. Ishchi guruh loyihasida shunday bayon qilinadi: “Ajratib yozish qoidalarida ham ayrim bahsli o‘rinlar bor. Masalan, *yildan-yilga*, *ko‘pdan-ko‘p*, *yangidan-yangi* kabi bir so‘zga aylanib ulgurgan birliklarning chiziqchasiz ajratib yozilishi qoidalashtirilgan. Bu kabi qoidalar maqsadga muvofiq emas, albatta”.

Bu o‘rinda shunday savol tug‘iladi: yuqoridagi kabi birliklarni chiziqchasiz ajratib yozilishi qoidalashtirilgan va bunga 22 yildan beri amal qilinib kelayotgan ekan, kishilarda bu borada yozuv ko‘nikmalar shakllanib bo‘lganda, ularni endi boshqa qoidaga ko‘ra yozishga o‘tish qanchalik o‘zini oqlaydi yoki bu nima beradi? Hech nima! Ortiqcha bosh og‘rig‘i, ovoragarchilik, xolos.

O‘zbek lotin alifbosidagi imloda kirill alifbosidagi s harfini berish ma'lum bir muammolar va yozuvda har xilliklarni keltirib chiqarmoqda.

Prof. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi” (-Toshkent, 1999) qo‘llanmasida o‘zbek alifbosidagi **ң** harfi o‘rnida o‘zbek lotin alifbosida qaysi harf(lar) yozilishi shunday tavsiya qilingan:

---

<sup>1</sup> Тогаев Т. Ўзбек алифбоси ва имлосини такомиллаштиришга муносабат. /Хорижий тилларни ўқитишида она тилининг аҳамияти: муаммолар, ечимлар ва истиқбол режалар. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. -Т.: 2017, 18-28 апрель.

a) so‘z oxirida, so‘z boshida, old qo‘sishmchadan keyin, undoshdan keyin s harfi yoziladi: *kvars – kvars, shprits – shpris, sellofan – sellofan, silindr – silindr, antitsiklon – antisiklon, konstitutsiya- konstitutsiya* kabi;

b) boshqa hollarda unlidan keyin **ts** yoziladi: glitsirin – glitsirin (to‘g‘risi: glitserin), gerbitsit – gerbitsit (to‘g‘risi: gerbitsid), konstitutsiya – konstitutsiya kabi.”

O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan tayyorlanib, chop etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”da (tuzuvchilar: E.Begmatov, A.Mirvaliyev. –Toshkent: Akademnashr, 2013) bu masala biroz boshqacha hal qilingan. E.Begmatov va A.Madvalyev yuqoridagi tavsiyaning a) qismidagi “...old qo‘sishmchadan keyin... s harfi yoziladi: antisiklon” deb ko‘rsatilgan qoidaga va imlo lug‘atida so‘zlarning shu asosda yozilishiga qo‘shilmaydi. Ularning fikricha, “chunki hozirgi kunda “xalqaro terminelementlar” deb ataluvchi va ko‘pincha old qo‘sishma (prefiks) maqomida keluvchi *anti -*, *bi-*, *bio-*, *geo-*, *de-*, *mono-*, *poli-* kabi birliklar, asosan, unli tovush bilan tugaydi, ulardan keyin keladigan va s harfi bilan boshlanadigan birliklar, ular xoh mustaqil so‘z bo‘lsin, xoh affiks, o‘zbek lotin alifbosida **ts** harflari bilan yozilishi kerak bo‘ladi. Sababi, yuqoridagi kabi yasama so‘zlarning ikkinchi komponenti boshida keladigan s harfi (tovushi) endi ikki unli o‘rtasida kelmoqda va bu holat (Sh.Rahmatullaev ko‘rsatgan) “boshqa hollarda unlidan keyin **ts** yoziladi” degan tavsiyaga muvvofiq keladi” degan fikri bildiradilar. Shundan kelib chiqqan holda lug‘atda bunday so‘zlarni **ts** bilan yozishni taklif qiladilar va yozadilar: *antitsiklon, biotsikl, bitsikl, bitsilindr, geotsentrik* kabi.

Bizningcha, bu fikrga va so‘zlarning bunday yozilishiga qo‘silib bo‘lmaydi. Hech qaysi o‘zbek bu so‘zlardagi ts birikmasini o‘zga til talaffuzi bilan s tarzida – yagona tovush sifatida aytmaydi, balki yozuvda ko‘rganiga muvofiq (asosan) t ni allohida, s ni alohida o‘qishga majbur bo‘ladi: *antit-sik-lon, biot-sikl, bit-sikl, bitsilindr, geot-sentrik* kabi. Oqibatda bu kabi so‘zlarning g‘ayritabiyy talaffuzi hosil bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchini chalkashtiradigan, so‘zlarning o‘zbekcha talaffuz me’yorlarini buzadigan, tilimiz tabiatiga yot bo‘lgan tavsiyalarni yoqlab

bo‘lmaydi. Bu tavsiyalar mahsuli imlo lug‘atlaridan joy olgach, majburiylik maqomini da'vo qiladiki, ular tufayli lug‘at tuzuvchilari tuzatmoqchi bo‘lgan imlomizdagi “har xillik”, aksincha, yana ko‘payganini ko‘ramiz. Shuning uchun Sh.Rahmatullayevning **s** uchun tavsiyalarini, xususan, “...old qo‘shimchadan keyin... **s** harfi yoziladi: antitsiklon...” tavsiyasini butunicha qoida uchun qabul qilish va tegishli so‘zlarni ularga amal qilgan holda yozish to‘g‘ri deb hisoblaymiz: *biosikl, bisikl, bisilindr, geosentrik* kabi.

T.Tog‘ayevning yangi imloni takomillashtirish yuzasida takliflarini keltirib o‘tishni lozim topdik: “...joriy imlo qoidalari ba’zi tuzatish va qo‘shimcha qoidalari kiritish lozim. Masalan:

1. «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ning «Asos va qo‘shimchalar imlosi» qismidagi 37 qoidaning 1) bandi uchun berilgan imlo qoidasi nomukammal chiqqan. Shunday qoida yozilgan:

1) taqlid so‘zlardan fe'l yasovchi **-illa (chirilla, taqilla)** qo‘shimchasi so‘z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo‘lganda **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi.

Ammo tiliimizda shov, lov, gur kabi so‘zlar bilan bir qatorda **viz, vish, vaq, var, vang, vag‘, vosh** singari tarkibida v undoshi bo‘lgan ko‘plab taqlid so‘zlar ham uchraydi. Ushbu so‘zlarni yuqoridagi qoidaga muvofiq vizullamoq, vishullamoq, vaquillamoq shaklida yozib bo‘lmaydi. Albatta, **viz, vish, vaq** singari taqlid so‘zlarga fe'l yasovchi **-illa** qo‘shilganda, asliga muvofiq yoziladi: **vizillamoq, vishillamoq** kabi. Shu sababli ushbu holat uchun berilgan imlo qoidasini quyidagicha tuzatish lozim:

1) taqlid so‘zlardan fe'l yasovchi **-illa (chirilla, taqilla)** qo‘shimchasi so‘z tarkibida u tovushi bo‘lganda yoki so‘z v tovushi bilan tugaganda **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: **gurulla, shovulla, lovulla** kabi.

2. Imlo qoidalaring 58-moddasida ko‘makchi fe'l va to‘liqsiz fe'l mustaqil fe'lidan ajratib yozilishi, lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o‘zgarishi bo‘lsa, bunday qismlar qo‘shib yozilishi ko‘rsatilgan: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)* kabi. Ammo, aytish kerakki, tovush

o‘zgarishi yuz berganda, *ekan* to‘liqsiz fe'lining o‘zidan oldingi so‘zga (mustaqil fe'lga) hamisha *-kan* shaklida qo‘sib yozilishi qat'iy qoida bo‘lmaydi. Chunonchi, mustaqil fe'l so‘roq mazmunida kelib, -di (o‘tgan zamon fe'li) qo‘sishimchasi bilan tugagan bo‘lsa, unga *-kan* shaklini qo‘sib bo‘lmaydi: Masalan, qachon ko‘rdikan deb aytish ham, yozish ham mumkin emas. Uning (-kanning) oldidan bir u orttirib, *qachon ko‘rdiykan* yoki *qachon ko‘rdiykin* shaklida aytish va yozishga majbur bo‘lamiz va bu to‘g‘ridir. Umuman, edi, ekan, emish to‘liqsiz fe'llarining mustaqil fe'lga qo‘sib yozilishiga oid qoidani tuzatish va mukammallashtirish zarur. Undan oldin -mi so‘roq yuklamasi kelganda (mas., borormi ekan, bilarmi ekan) bu so‘zning talaffuzi o‘zgarishi, ya'ni uning tarkibidagi a unlisi i aytilishi uchraydi (mumkin): borarmikin, bilarmikin kabi. Fikrimizcha, mana shunday aytilganicha yozishni ham qoidalashtirish zarurati bor (yozish qoidalashtirilsa, to‘g‘ri bo‘ladi). Sababi uni *borarmikin*, *bilarmikin* tarzida aytish va yozish bilan *borarmikan*, *bilarmikan* tarzida qo‘llash orasida muallifning ob'ektga munosabatini farqlaydigan holat mavjud.

3. So‘zga ikki yuklama qator qo‘shilishiga to‘g‘ri kelsa va har ikki yuklama ham yangi imlo qoidasiga ko‘ra chiziqcha bilan ajratib yozilsa (55-qoida), qanday yo‘l tutish lozim? Masalan: Men boraman-ku-ya, siz kelmaysiz-da-a? singari qoida bo‘yicha, -ku va -ya, -da va -a yuklamalarining har ikkovini chiziqcha bilan ajratib yozgan ma'qulmi yoki birinchi yuklamani so‘zga qo‘sib: boramanku-ya, kelmaysizda-a? tarzida yozgan durustmi? Bu masalalarda ham anqlikka erishish zarur.

4. Imlo qoidasidan chetda qolgan yana bir holat bor va buning to‘g‘risi qanday yozilishini imlo lug‘atlarida ham ko‘rsatib bo‘lmaydi. Ya'ni ayrim yuklamalarning so‘zlarga qo‘shilganda, o‘zak tarkibining o‘zgarishidir. Masalan, so‘roq, ta'kid, taajjubni bildiruvchi -a, -ye, -ey yuklamalari q undoshi bilan tugaydigan so‘zlarga qo‘shilganda, bu undosh talaffuzda g‘ ga, k undoshi bilan tugaydigan so‘zlarga qo‘shilganda esa, k undoshi g ga o‘zgaradi va shunday yoziladi: yo‘q+a=yog‘-a, yoq+e=yog‘-e, tasadduq+ey=tasaddug‘-ey; kordik+a=kordig-a, ketdik+ey = ketdig-ey kabi.

“Voy, suzuk ko‘zlaringga Otika opang tasaddug‘-ey. (M.Ismoiliy. Qizlar daftari. 71-bet)

5. Yozuv amaliyotida ham (ham) ko‘makchisining qisqargan shakli o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shib yoziladi: biram, yosham, qariyam, bittayam, shunaqayam, ko‘rsayam, oldiyam. Ko‘rinadiki, agar so‘z undosh bilan tugagan bo‘lsa, ham ko‘makchisining birinchi tovushi (harfi) tushirib, oldingi so‘zga qo‘shiladi: hecham-da (hech ham-da). Biram ko‘rgim keldi. Yosham o‘tib boryapti. Agar so‘z unli bilan tugagan bo‘lsa, ham ko‘makchisining birinchi tovushi o‘rniga u harfi yoziladi: ko‘rsayam ko‘rmaslikka oldi, Shunaqayam bo‘ladimi kishi. Bu holat ham imlo qoidalari ichida o‘z ifodasini topishi lozim.

Yuqorida bayon qilinganlardan umumiy xulosamiz quyidagicha:

- 1) joriy imlo qoidalari dagi ba'zi kamchiliklarni tuzatish kerak;
- 2) imlo qoidasidan chetda qolgan holatlar uchun imlo qoidalari ishlab chiqish va 82 ta qoida ortidan qo‘shish zarur.

Umuman, imlo qoidalari dagi bunday hodisalar talqiniga chuqurroq yondashish, imloning ayrim masalalarini tadqiq qilish va o‘rinli taklif va tavsiyalarni inobatga olish va imloda aks ettirish yozuv madaniyatimizni takomillashtiradi.

## UMUMIY XULOSA

O‘zbek milliy tilining shakllanishi va rivojida shu til uchun tayin etiladigan yozuv – alifbo va imlo alohida o‘rin tutadi. Millat taqdirida g‘oyat dolzarb, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatga molik bu masalani ilmiy-nazariy o‘rganish, o‘zbek tili uchun to‘g‘ri ishlab chiqish va joriy etish mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Sho‘rolar mafkurasi hukmron bo‘lgan davrda o‘zbek tilining o‘zbek xalq manfaatlariga javob beruvchi, milliy tilga mos va xos alifbo va imlosini yaratish va qabul qilish, taraqqiyot yo‘lida foydalanish imkonini bo‘lmadi. Alifbo-imlomiz, yozuvimiz taqdirini o‘zimiz istagancha, xalqimizga ma’qul tarzda hal qilish O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi bilan ro‘yobga chiqdi.

O‘zbek yozuvining lotin alifbosiga o‘tilgan 1929-1940 yillardagi ijobiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xalqimiz bu yozuvga o‘tishi arab va kirill alifbolariga o‘tishdan farqli ravishda biror bir tazyiqsiz, o‘z ixtiyori bilan yuz berdi. Olingan natijalardan xulosalarimizni umumiy holda shunday ifoda etmoqchimiz:

1. Arab alifbosi 1921-1923-yil ichida uch bor isloh qilinishiga qaramay, uni tuzatib, bu sohada yagona fikrga kelib bo‘lmadi. Shu sababli, turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar ham o‘z tillari uchun ancha sodda va ancha qulay bo‘lgan lotin alifbosiga o‘tdilar.

2. Fitrat, Ashurali Zohiriy, Cho‘lpon, G‘ozi Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Elbek, Abdulla Alaviy, Shokirjon Rahimi, Botu singari mashhur olim va yozuvchilar, ko‘zga ko‘ringan madaniyat xodimlari, milliy ziyolilar dastlab arab alifbosini isloh qilish, keyin esa lotin yozushi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi va imlosini ishlab chiqish, uni hayotga joriy etish ishiga katta hissa qo‘shdilar.

3. 1995-yilning 6-mayida O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish kiritilishi undagi ayrim moddalarning o‘zbek tili taraqqiyoti uchun uncha mos emasligini o‘tgan davr yozuv amaliyoti ko‘rsatib berdi. Alifboda nutq tovushlarini ifodalash uchun qabul qilingan harf birikmalarini o‘zgartirish, bir tovush uchun bir harf olish fikri ilmiy jamoatchilik o‘rtasida ustunlik qilmoqda. Sh sh o‘rniga Š š; Ch ch o‘rniga Čč harflarini olish; NG ng o‘rniga Ņ ñ harfini olish

yoki bu tovushga alifboda harf belgilamasdan uni n va g harflari yordamida ifodalash ko‘proq munosib ko‘rilmoxda.

4. O‘o‘, G‘g‘ harflarining o‘rni bularning yozma shakli bilan deyarli bir xil bo‘lgan Ō ö, G‘g‘ harflarini kiritish savod chiqarishda moslikni tug‘dirdi, shuningdek, tutuq belgisi (‘) bilan harf belgisini (‘) farqlamasdan qo‘llash kabi holatlarni bartaraf etadi, kompyuterda yozishda texnik jihatdan qulaylikka, afzallikka ega.

5. Rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o‘zlashgan *sirk*, *sirkul*, *sex* kabi so‘zlar tarkibidagi birinchi tovush uchun S harfini qabul qilish to‘g‘ri emas, chunki o‘zbek tili tovush tizimida bunday tovush yo‘q.

6. joriy imlo qoidalaridagi ba'zi kamchiliklarni tuzatish, imlo qoidasidan chetda qolgan holatlar uchun imlo qoidalari ishlab chiqish va 82 ta qoida ortidan qo‘shish zarur.

Umuman, alifbo va imlo qoidalariga kiritiladigan o‘zgarishlarni har tomonlama ilmiy, ta'limiylar va texnix jihatdan har tomonlama puxta o‘ylab ko‘rgan, o‘rinli taklif va tavsiyalarni inobatga olgan holda amalga oshirish yozuv madaniyatimizni takomillashtiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. Alohida adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston. 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008, 17-bet.

### **II. Ilmiy tadabiyotlar**

#### *Darslik, qo‘llanma va risolalar*

4. Abdullayev Y. Hamrohim.- T.: O‘qituvchi, 1996
5. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. 1-kism. -T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi , 2004.
6. Jamolxonov H., Umarov A. O‘zbek yozuvining XX asr tarixi ( I kitob), -T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2017. -456-b.
7. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi .T.,O‘zbekiston, 2002. 2-kitob.
8. Rafiev A. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi. - Toshkent, 2003.
10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi.-T.: Universitet, 2002.
11. Jomonov R. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish va imlo muammolari.-T.: O‘zbekiston, 2013.

#### *Imlo qoidalari va lug‘atlar*

12. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari / Nashrga tayyorlovchi: Raxmatullaev Sh. -T.: O‘qituvchi, 1995.
13. O‘zbek tilining imlo lug‘ati / Tuzuvchilar: Begmatov E., Madvaliyev A. –T.: Akademnashr, 2013.

14. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. / Tog‘ayev T, Tavldiyeva G, Akromova M. –T.: Sharq NMAK, 2015.

***Dissertatsiyalar***

15. Tog‘ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. Filol.fan. nomz... diss. -T., 2005.
16. Qurbonova M. Fitratning tilshunoslik me'rosi. Filol.fan. nomz... diss. -T., 1993.

***Ilmiy maqolalar***

17. Abdullayev Y. Moziy va yangi alifbo // «O‘zbekiston ovozi»,- 1995,- 24-yanvar.
18. Doniyorov X., To‘ychiboev B., Yo‘ldoshev Q. Mukammal alifbo - savodxonlik garovi. // «O‘qituvchilar gazetasi».- 1991.- 11-aprel.
19. Jamolxonov H. Arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek alifbosidan lotin grafikasi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tishning asosiy sanalari // Turkiy tillarning taraqqiyoti muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - T.: Fan, 1995.-B. 44-49.
20. Jomonov R. Fitrat imlo qoidalarining zarurati haqida // «Til va adabiyot ta’limi»,- 1998.- 6-son. - B.58-60.
21. Mahmudov N. Mustaqillik: o‘zbek tili va yozuvi // «Xalq so‘zi».- 1992.- 19-may .
- 22.Tilimiz jozibasining tilsimi. (I. Qo‘chqortoyev, A. Hojiev, O. Yoqubov, N. Mahmudov, E.Begmatov, A. Jabborov, A. Rafiyev, A.Madvaliyev). // «Xalq so‘zi».- 1993.- 28-iyul.
23. Qorayev S. Yozuvimiz takomilga muhtoj // «O‘zbekiston adabiyoti va san'ati».- 1991.- 23-avgust
24. Qo‘chqortoyev I. O‘zbek yozuvi muammolari // «O‘zbekiston adabiyoti va san'ati».- 1991.- 22-mart.
25. Qo‘chqortoyev I. O‘zbek milliy alifbosi (davra suhbati) //O‘zbekiston adabiyoti va san'ati, 1993- yil, 13-avgust, 2-bet.

26. Ҳожиев А. Катта меҳнат маҳсули // Маърифат, 1994-йил, 14-сентябрь, 43-сон.

### **III. Til va yozuvga oid qonun, farmon va qarorlar**

27. 1921-yil yanvarida bo‘lgan birinchi O‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyi chiqargan karorlari.- T.: «Turqdovnashr», 1922.
28. 1923-yil, 18-oktyabr. Turkiston Jumhuriyati Maorif Komissarligining Turkiston o‘zbeklarining imlolari to‘g‘risidagi bergan buyrug‘i (buyruk №48). - T., 1923.
29. 1929-yil, 15 – 23-mayda Samarqandda bo‘lib o‘tgan Respublika til va imlo konferensiysi qarorlari. - T.: O‘zdavnashr, 1930.
30. 1993-yil, 2-sentyabr. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida. O‘n ikkinchi chaqirik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n uchinchi sessiyasida qabul qilingan qonun // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi.-1993, №9, 332 - modsa.
31. 1995-yil, 6- may. «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘grisida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish tartibi xaqidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori. // Xalqso‘zi.- 1995.-6 iyun; «Ma‘rifat». - 1995. -7 iyun. Yana qarang: Til va adabiyot ta’limi.- 1995.-№3. - B.4.
32. 1995-yil, 24-avgust. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasining 339-sonli karori: O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida. // O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. -T .: O‘qituvchi, 1995.- B. 1.